v) aniklash, yaratish va mantiqiy ma'lumotlar bilan amallar bajarish (ya'ni tanlash, yangilash, kiritish va yuk qilish)ga imkon beruvchi MAT va MABT funksiyalarini amalga oshiruvchi dasturlarni ta'minlash.

g) ma'lumotlarning ximoyasi va yaxlitligini ta'minlash. Tizimdan foyda- lanish fakat shunga xukuki (ximoyasi) bo'lgan foydalanuvchigagina ruxsat eti- ladi. Foydalanuvchilar ma'lumotlar ustida operatsiya bajarayotganlarida saklanayotgan ma'lumotlarning muvofikliligi (yaxlitligi) ta'minlanadi. Gap shundaki, MBBT kuplab foydalanuvchilar ishi kollektiv rejimida ta'min- lashga muljallanadi.

Kollektiv rejimida umumiy fizik ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Bu turli foydalanuvchilarning ishida aynan bir xil ma'lumotlarning muvo- fikligini

ta'minlashni talab qiladi. Nomuvofilikning tipik misoli bir vaqtdagi modifikatsiyalarni notugri boshkarishda yuzaga keladi. Uzgati- rishlarda yukotib qo'yish va notugri axborot berish kabi muammolar kuyida (ximoyalash va yaxlitlashga. bagishlangan bulimlarda) kurib chikiladi. Mavjud bo'lganidan kup maxsulot sotish yoki bir urniga bir nechta bilet sotishlar bun- ga misol buladi. YAxshi MBBT ma'lumotlar bazasidan foydalanishda extimol tutilgan nomuvofikliklarni nazorat qilish mexanizmini ta'minlashi lozim.

Nazorat savollari:

5. Ifodalar.
6. O'zgarmlar.
7. Ifodalar.
8. operatorlar.
9. Ma'lumotlar bazasi mustakilligi deganda nimani tushinasiz.
10. MBBT kullash asoslarini keltiring.

5-MAVZU: PARAMETRLI SO'ROVLAR. SO'ROVLARDA TANLASH SHARTLARINI SHAKLLANTIRISH

| | |
|-----------------|---|
| 5 -mavzu | PARAMETRLI SO'ROVLAR. SO'ROVLARDA TANLASH SHARTLARINI SHAKLLANTIRISH |
|-----------------|---|

3.2. Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

| | |
|---|--|
| Vaqti: 2 soat | Talabalar soni: ____ nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | <p>1. Axborotlar bazasini tashkil etish va yuritishning dasturiy vositalari</p> <p>2. Ma'lumotlar bazasini tashkil qilish va uni boshqarish tizimi</p> |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarning ma'lumotlar bazasini tashkil qilish, taxrirlash, strukturasi o'zgartirish. ma'lumotlar bazasi elementlari orasidagi boglanishlar va ularni tashkil etish bo'yicha bilim va malakasini shakllantirish. | |
| Pedagogik vazifalar: 1. Mavzu bo'yicha: muammolar, | O'quv faoliyati natijalari: |

| | |
|---|--|
| izlanishlar yechimlar haqda tushunchalar berish 2.Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni tushuntirib berish. | Talaba: 1.Mavzu bo'yicha: muammolar, izlanishlar yechimlar haqida tushunchalarga ega bo'ladi. 2.Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar va ulardan foydalanishga ko'nikmalar hosil bo'ladi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blis-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya |

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|--------------------------------------|--|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi. | 1.1. Eshitadilar va yozib oladilar. |
| 2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa) | 2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida tezkor so'rovlar o'tkaziladi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: | 2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daf-tarlariga chizadi. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi, |
| 3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa) | 3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. | 3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi. |

Axborotlar bazasini tashkil etish va yuritishning dasturiy vositalari

Umumiy xolda dasturiy vositalarga servis dasturiy vositalar, umumiy maksad uchun universal amaliy dastur vositalari va maxsus amaliy dasturlar kiradi.

Ma'lumotlar bazasini boshkarish tizimi (MBBT) - axborotlar bazasini yaratish va yuritish uchun aloxida ahamiyatga ega. MBBT umumiy maksadlarga muljallangan universal amaliy dasturiy vositalarga mansub. MBBT - bu mashina tashuvchida mantiqiy uzaro boglangan ma'lumotlarni tashkil etish va yuritish uchun muljallangan nisbatan keng tarkalgan va samarali universal dasturiy vosita sanaladi. MBBT yagona ma'lumotlar bazasida dubl qilin- maydigan ma'lumotlarni integratsiyalashni va ulardan kup maksadlarda foy- dalanishni, bazadagi barcha ma'lumotlar butunligini va tugriligini ta'minlaydi va ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishdan ximoyalaydi (3 - rasm).

MBBT ma'lumotlar bazasidan surovlarni tashkil etishni tashkil etish- ning dasturi bulmagan foydalanuvchiga muljallangan kulay vositalariga ega.

MBBT asosida ABni ishlab chikish, ma'lumotlar bazasini tashkil etish strukturasi buyicha masalalarni tayyorlashga muljallangan. Bu masalalar be- vosita axborotlar ta'minotining nomashinaviy soxasi bilan boglangan. Ishlab chikarilgan ma'lumotlar bazasiga muvofik uni MBBT vositalari bilan tashkil etish va uni ishga tushirish amalga oshiriladi.

Axborotlarni kiritish va nazoratlashning maxsus dasturiy vositalari - katta axborot bazasi uchun ilk massivlarni yaratish va ma'lumotlarni bazaga tuplashdan oldin qayta ishlash boskichida foydalaniladi. Bazadan oldin qayta ishlash vositasi kompyuterga kiritiladigan axborotning xakkoniyligini va katta massivdagi ma'lumotlarni yuklashga tayyorgarlikni avtomatlashtirish nazoratini ta'minlaydi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashning servis vositalari - axborot bazasiga xizmat kursatish buyicha kumakchi vazifalarni ta'minlashim lozim. Ular baza- ning dasturiy vositalariga tegishli. Bular ma'lumotlar fayllari va tashu- vchimashinalar bilan ishlash buyicha turli utilitalardir. Ularga quyidagilar mansub: nusxa olish, arxivlash, tiklash, anti-virus vositalari, tarmok utilit- lari va boshkalar.

Foydalanuvchining amaliy dasturlari universal algoritmlash tillari- dan birida yaratiladi. Bunday dasturlarda, odatda ularda ishlab chikilidigan ma'lumotlardan mustakil bulish ta'minlanmaydi. Ayrim joylarda bitta fan soxasining turli masalalariga oid axborot massivlarida ma'lumotlar takrorlanadi. Bu xol turli masalalar buyicha bir xil ma'lumotlarni bir necha marta kiritishga olib keladi va dastlabki ma'lumotlarga uzgartirishlar ki- ritganda ancha muammolarni keltirib chikaradi. Amaliy dasturlar shuningdek MBBTda universal algoritmik tilda yaratilishi mumkin.

Ma'lumotlar bazasini tashkil qilish va uni boshqarish tizimi sistemasi- MBBS).

Ma'lumotlar bazasi -bu o`zaro boglangan va tartiblangan Ma'lumotlar majmuasi bo`lib. u kurilayotgan ob'ektlarning xususiyatini, xolatini va ob'ektlar o`rtasidagi munosabatni ma'lum soxada tavsiflaydi.

Darxaqiqat, xozirgi kunda inson xayotida MBda kerakli axborotlarni saqlash va undan oqilona foydalanish juda muxim rol o'ynaydi. Sababi jamiyat taraqqiyotining qaysi jabxasiga nazar solmaylik o'zimizga kerakli ma'lumotlarni olish uchun albatta, MBga murojaat qilishga majbur bo'lamiz. Demak, MBni tashkil qilish axborot almashuv texnologiyasining eng dolzarb xal qilinadigan muammolaridan biriga aylanib borayotgani davr taqozasidir.

Ma'lumki, MB tushunchasi fanga kirib kelgunga qadar, ma'lumotlardan turli ko'rinishda fondalanish juda qiyin edi. Dastur tzuvcilar ma'lumotlarni shunday tashkil qilar edilarki u faqat karalayotgan masala uchungina o'rinli bo'lardi. Xar bir yangi masalani xal qilishda Ma'lumotlar qaytadan tashkil qilinlar va bu xol yaratilgan dasturlardan foydalanishni qiyinlashtirar edi.

Shuni qayd qilish lozimki, MBni yaratishda ikkita muxim shartni xuco6ra olmoq, zarur:

Birinchidan, Ma'lumotlar turi, ko'rinishi, ularni qo'llaydigan dasturlarga bog'liq, bo'lmasligi lozim, ya'ni MBga yangi ma'lumotlarni kiritganda yoki ma'lumotlar turini o'zgartirganda, dasgurlarni o'zgartirish talab etilmasligi lozim.

Ikkinchidan, MBdagi kerakli ma'lumotni bilish yoki izlash uchun biror dastur tuzishga xojat qolmasin.

Shuning uchun xam MBni tashkil etishda ma'lum qonun va koidalarga amal qilish lozim. Bundan buyon axborot so'zini ma'lumot so'zidan farqlaymiz, ya'ni axborog so'zini umumiy tushuncha sifatida qabul qilib, ma'lumot deganda aniq, bir belgilangan narsa yoki xodisa sifatlarini nazarda tutamiz.

Bugungi kunda ma'lumotlarni eng ishonchli saqlaydigan vositalardan biri esa xozirgi zamon kompyuterlaridir. Kompyuterlarda saqlanadigan MB - bu maxsus formatga ega bo'lgan muayyan tuzilmali fayl demakdir. Kompyuter xotirasida xar bir fayl, yozuv deb ataladigan bir xil turdagi qismlardan iborat bo'ladi. Ezuv- o'zaro boglangan ma'lumotlarning bir qismidir. Fayldagi yozuvlar soni, qaralayotgan ma'lumotning ulchoviga bog'lik. Xar bir yozuv esa maydon deb ataladigan bo'laklardan tashkil topadi. Maydon ma'lumotlarning. imkoni boricha, qisqa to'plamidan iborat bo'lishi lozim. Xar bir maydon, o'zi ifodalaydigan ma'lumotlariga ko'ra biror nomga ega bo'ladi. Fikrimizni misol bilan ifodalashga xarakat qilamiz.

Masalan, biror Oliy o'quv yurtining aniq fakultetida taxsil olayotgan biror gurux talabalari to'grisidagi ma'lumotlar bitilgan quyidagi jadvalni quraylik:

| Familiyasi | Ismi | Tug'ilgan sanasi | Guruxi | Turar joyi | qiziqqan fani |
|------------|------|------------------|--------|------------|---------------|
|------------|------|------------------|--------|------------|---------------|

| | | | | | |
|---------|---------|-----------|-----|----------------|----------|
| Ochilov | Alisher | 2.05.1978 | 5-M | T-1,15 | Matem. |
| Kobulov | Farxod | 2.12.1982 | 6-E | I.Sino, 1 | Adabiyot |
| Aminov | San'at | 3.6.1980 | 5-M | T-2,12 | Tarix |
| Tolipov | Jasur | 24.5.1979 | 6-E | <i>Beruniy</i> | Iqtisod |

- **Ispolnimost** -Bajarilishlik, foydalanuvchi so'roviga xozirjavoblik bilan muloqotga kirishish
- **Minimalnaya povtoryaemost-Minimal** takrorlanishlik MBdaga ma'lumot iloji boricha kam takrorlanishi lozim, aks, xolda ma'lumotlarni izlash susayadi.
- **Yaxlitlik** -axborotni MBda saqlash iloji boricha ma'lumotlar orasidagi bog`liqlikni asragan xolda bo`lgani, ayni muddao.

- **Bezopasnost'**- Xavfsizlik MB ruxsat berilmagan kirishdan ishonchli ximoya qilingan bo`lishi lozim. Faqat foydalanuvchi va tegishli tashqilotgina ma'lumotlarga ko'ra olish va fondalanish xuquqiga egalik qilishi mumkin.

• Migratsiya-ba'zi bir ma'lumotlar foydalanuvchilar tomonidan tez ishlatilib turiladi, boshqalari esa faqat talab asosida ishlatiladi. Shuning uchun ma'lumotlarni tashqi xotiralarda joylashtiriladi va uni shunday tashkil qilish kerakki, eng ko'n ishlatiladigan ma'lumotlarga murojaat qilish qulay bo`lsin.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida xar bir MB modeli quyidagi xususiyatlari bo'yicha tavsiflanadi:

1. Ma'lumotlar tuzilmalarining turi.
2. Ma'lumotlar ustida bajariladigan amallar.
3. Butunlikning cheklanganliga.


Bu xususiyatlarni e'tiborga olgan xolda ma'lumotlar bazasi modellari quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Daraxtsimon (ierarxik) modellar.
2. Tarmoqli (turli) modellar.
3. Relyatsion modellar.

Yana shu narsani ta'kidlash lozimki, ma'lumotlar bazasi modellarining faqatgina yuqorida qayd qilingan modeli mavjud deyish noto'gri. Chunki, bulardan tashqari yana ma'lumotlar bazasining binar munosabatlar modeli, ER - modellar, semantik model kabi boshqa turlari xam mavjud.

Lekin amalda asosan dastlabki ta'kidlangan 3 turli modellar ko'proq qo'llanilib kelinmoqda. Shuning uchun xam biz ushbu modellarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Daraxtsimon (ierarxik) modelda ob'ektlar yozuvlar.Masalan



Ierarxik modelda ikki yarusdagi elementlar bo'lgan bo'lsa, unday ma'lumotlar tarmoqli (turli) modelda ifodalangan deyiladi. Tarmoqli modellarda xam ob'ektlar daraxtsimon modellardagi kabi yozuvlar ko'rinishida tasvirlanadi. Ob'ektlarning o'zaro aloqalari yozuvlar o'rtasidagi aloqalar sifatida tavsiflanadi.

Relyatsion modellarda esa ob'sktlar va ularning o'zaro aloqalari ikki o'lchovli jadval ko'rinishida tasvirlanadi. Ma'lumotlarning bunday ko'rinishda tasvirlanishi ob'ektlarning o'zaro aloqalarini yaqqol tasvirlanishiga asos bo'ldi.

**6-MAVZU: KESISHUVCHI SO'ROVLAR. SO'ROVLARDA HISOBLANUVCHI
MAYDONLAR. OPERATORLAR, IDENTIFIKATORLAR, IFODALARNING
ELEMENTLARI**

| | |
|----------------|--|
| 6-mavzu | KESISHUVCHI SO'ROVLAR. SO'ROVLARDA HISOBLANUVCHI MAYDONLAR. OPERATORLAR, IDENTIFIKATORLAR, IFODALARNING ELEMENTLARI |
|----------------|--|

3.3. Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

| | |
|---|---|
| Vaqt: 2 soat | Talabalar soni: ____ nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1 MBBT asosiy xususiyatlari |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarning ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Microsoft access haqida umumiy ma'lumot bo'yicha bilim va malakasini shakllantirish. | |
| Pedagogik vazifalar: 1.Mavzu bo'yicha: muammolar, izlanishlar yechimlar haqida tushunchalar berish 2.Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni tushuntirib berish. | O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1.Mavzu bo'yicha: muammolar, izlanishlar yechimlar haqida tushunchalarga ega bo'ladi. 2.Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar va ulardan foydalanishga ko'nikmalar hosil bo'ladi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blis-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya |

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|----------------------|---|-------------------------------------|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1 bosqich. Kirish | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadi- | 1.1. Eshitadilar va yozib oladilar. |

| | | |
|--------------------------------------|---|--|
| (10 daqiqa) | gan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi. | |
| 2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa) | 2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida tezkor so'rovlar o'tkaziladi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: | 2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daf-tarlariga chizadi. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi, |
| 3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa) | 3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. | 3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi. |

MBBT asosiy xususiyatlari

MBBT asosiy xususiyatlari - bu protseduralar tarkibi bo'lib, ular faqat ma'lumotlarni kiritish va saqlashda ishlatilmasdan, ularning strukturasi ham tasvirlaydi. Ma'lumotlarni o'zida saqlab va MBBT ostida boshqariladigan fayl, oldin ma'lumotlar banki deb atalib, keyinchalik esa "Ma'lumotlar bazasii" deb yuritila boshladi.

Ma'lumotlarni boshqarish tizimi, quyidagi xossalarga ega:

- ✓ fayllar to'plami mantiqiy kelishuvni quvvatlaydi;
- ✓ ma'lumotlar ustida ish yuritish tili bilan ta'minlaydi;
- ✓ har xil to'xtalishlardan keyin ma'lumotlarni qayta tiklaydi;
- ✓ MBBT bir necha foydalanuvchilarning parallel ishlashini ta'minlaydi.

Microsoft Access MBBT relyatsion ma'lumotar bazasini boshqaruvchi tizim sanalib, local ma'lumotlar bazasini yaratish uchun barcha instrumental vositalar hamda foydalanuvchi dastur tuzish imkoniyatlari mavjud.

Microsoft Access MBBT o'z ichiga turli ob'yektlarni yaratish uchun avtonom vositalarga ega:

- Grafik konstrucciylar vositasi ma'lumotlar bazasi ob'ektlarini grafik elementlar yordamida qurish imkoniyatiga ega;
- Dialog vosita ma'lumotlar bazasini qayta qurish va tashkillashtirish uchun turli vazifalarni bajaruvchi masterlar yordam beradi;
- MBBT ning dasturlash vasitasi uz ichiga SQL, makrokomandalar tilini olgan.

Microsoft Access dasturi ma'umotlar ombori bilan ishlash uchun yaratilgan dastur bo`lib u Microsoft Office ning standart paketida joylashgan bo`ladi.

Microsoft Accessning asosiy bajaruvchi funksiyalari:

-Ma'lumolar berilishini tashkil qilish. Jadvallar yaratish va ularni boshqarish.

-Jadvallarni bog'lash va berilgan ma'lumotlardan foydalanish huquqini (dostup) ta'minlash. Access jadvallarni mos keluvchi maydonlari yordamida bog'laydi va buning natijasida ularni bitta jadvalga keltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

-Ma'lumotlarni taqdim etish. Access ma'lumotlar bazasining berilgan jadvallari va boshqa ob'ektlari asosida turli xil hisobotlar tuzish imkonini beradi.

-Makroslar. Makroslardan foydalanish qaytariluvchi operatsiyalarni Avtomatlashtirish imkonini beradi. Accessning oxirgi versiyalarida makroslar boshqa tizimlar bilan birgalikda ishlash uchun ishlatiladi.

-Modullar. Modullar - bu Access WBA (Vizual Basic Application) dasturlari yoki funksiyalarini o'zida namoyon qiladi. Bu dasturlarni murakkab hisoblar

uchun ishlatish mumkin. Access dasturlari makroslarga nisbatan yuqori imkoniyatlarga egadir.

-Ma'lumotlar bazalarini himoyalash. Bu vosita dasturiy ilovani ko'pfoydalanuvchili muhitda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Hamda ma'lumotlar bazasidan ruxsatsiz foydalanishni ta'qiqlaydi.


-Bosmaga chiqarish vositalari. Bu funksiya yordamida Access ma'lumotlar bazasida mavjud hamma axborotlarni bosmaga chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, tayyor dasturiy ilovalarni tarqatish uchun Access distributiv disklarni(Office Developer Edition yordamida) yaratishga imkon beradi.

Dasturlarni o'rnatish va tarqatishni avtomatlashtirish vositasini tayyorlashda ODE Tools paketi o'rnatish masteriga ega. Bu esa Access o'rnatilmagan kompyuterlarda ham dasturiy ilovalarning ishlashini ta'minlaydi.

Ma'lumotlar bazasi – ma'lum sohaga oid o'zaro boglangan ma'lumotlar yig'indisining disk tashuvchidagi tashkiliy jamlanmasi.


Microsoft Office keng tarqalgan ofis ishlarini avtomatlashtiruvchi dasturlar paketidir. Uning tarkibiga kiruvchi Access nomli dastur hozirda MB sifatida keng o'rganilmoqda va qo'llanilmoqda.

Microsoft Access dasturini ishga tushirish uchun masalalar panelidagi «**Pusk**» tugmachasi ustiga sichqoncha ko'rsatkichini olib borib chap tugmachasini bosamiz va «**Программы**» bo'limiga o'tib, Microsoft Access qismini tanlab olamiz.



1-rasm.

MBning dastlabki oynasi soddaligi va tushunarligi bilan ajralib turadi.




2-rasm.

Oynaning birinchi sarlavha satrida amaliy dasturning nomi Microsoft Access deb yozilgan, ikkinchi satrida esa quyidagi tartibda menyu punktlari joylashgan:

Uchinchi satrda asboblari paneli piktogrammalari joylashgan:



Access oynasi ettita obyektidan iborat. Bular «**Ob'ekty**» (**Ob'ektlar**), «**Tablitsy**» (**Jadvallar**), «**Zaprosy**» (**So'rovlar**), «**Formy**» (**Shakllar**), «**Otchet**» (**Hisobotlar**), «**Stranitsy**» (**Saxifalar**), «**Makrosy**» (**Makroslar**), «**Moduly**» (**Modullar**).



3-rasm.

Ularning har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. «**Tablitsy**» (**Jadvallar**) — MBning asosiy objekti. Unda ma'lumotlar sakllanadi.

2. «**Zaprosy**» (So'rovlar) — bu ob'yekt ma'lumotlarga ishlov berish, jumladan, ularni saralash, ajratish, birlashtirish, o'zgartirish kabi vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

3.«**Formy**» (Shakllar) — bu obyekt ma'lumotlarni tartibli ravishda oson kiritish yoki kiritilganlarni ko'rib chiqish imkonini beradi. Shakl tuzilishi bir qancha matnli maydonlar, tugmalardan iborat bo'lishi mumkin.

4. «**Otchety**» (Hisobotlar) — bu ob'yekt yordamida saralangan ma'lumotlar qulay va ko'rgazmali ravishda qog'ozga chop etiladi.

5. «**Makrosy**» (Makroslar) — makro buyruqlardan iborat ob'yekt. Murakkab va tez-tez murojaat qilinadigan amallarni bitta makrosga guruxlab, unga ajratilgan tugmacha belgilanadi va ana shu amallarni bajarish o'rniga ushbu tugmacha bosiladi. Bunda amallar bajarish tezligi oshadi.

6. «**Moduly**» (Modullar) — Microsoft Access dasturining imkoniyatini oshirish maysadida ichki Visual Basic tilida yozilgan dasturlarni uzez ichiga oluvchi obyekt.

Bundan tashKari, «**Stranitsy**» (Saxifalar) nomli aloxida obyekt ham mavjud. Bu obyekt HTML kodida bajarilgan, Web — saxifada joylashtiriladigan va tarmoq orqali mijozga uzatiladigan aloxida obyektidir.

MBning dastlabki oynasida yuqorida sanab o'tilgan **7** ta asosiy obyektning ilovalaridan tashqari, yana **3** ta buyruq tugmachalari mavjud. Bular: «**Otkryt**» (Ochish), «**Konstruktor**» (Tuzuvchi), «**Sozdat**» (Yaratish) tugmachalaridir.



«**Otkryt**» (Ochish) tugmachasi tanlangan obyektни ochadi. «**Konstruktor**» (Tuzuvchi) ham tanlangan obyektни ochadi, lekin u obyektning tuzilmasinigina ochib, uning mazmunini emas, balki tuzilishini to'g'rilash imkonini beradi. Agar obyekt jadval bo'lsa, unga yangi maydonlar kiritish yoki mavjud maydonlarning xossalarini o'zgartirish mumkin. «**Sozdat**» (Yaratish) tugmachasi yangi obyektlarni: jadvallar, so'rovlar, shakllar va hisobotlarni yaratish uchun ishlatiladi.

Biror MBni yaratishdan oldin albatta uning loyihasini ishlab chiqish lozim. Buning uchun MBning tuzilmasini aniqlab olish kerak bo'ladi. MBning yaxshi tuzilmasi talablarga mos keladigan, samarali MBni yaratish uchun asos bo'ladi.

MS Accessda MBni yaratishning ikki usuli mavjud. Ulardan biri bo'sh bazani yaratib, so'ngra unga jadvallar, shakllar, hisobotlar va boshqa obyektlarni kiritishdan iborat. Bu usul ancha yengil va qulay bo'lgani bilan MBning har bir elementini alohida aniqlashga to'g'ri keladi. Shuning uchun ikkinchi usuldan ko'proq foydalanishadi. Unda «**Master**» (Usta) yordamida barcha kerakli jadvallar, shakllar va hisobotlarga ega bo'lgan ma'lum turdagi MB birdaniga yaratiladi, ungra tegishli o'zgartirishlarni bajarish mumkin. Bu boshlang'ich MBni yaratishning eng sodda usulidir.

Savollar

1. Access dasturi qaysi firma tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda qanday versiyalari mavjud?
2. MS Access dasturini ishga tushirish va undan chiqishni tushintiring.
3. MS Accessning menyu tashkil etuvchilari haqida tushuncha bering.
4. MS Access dasturi necha obyektidan iborat.

7-MAVZU: O'ZGARTIRISHGA DOIR SO'ROVLAR. JADVALLAR BILAN ISHLASH REJIMLARI, JADVAL YARATISH, JADVAL BUYICHA XARAKATLANISH, JADVALLARARO BOG'LANISHLAR O'RNATISH TEXNOLOGIYASI.

| | |
|----------|---|
| 7 -mavzu | O'ZGARTIRISHGA DOIR SO'ROVLAR. JADVALLAR BILAN ISHLASH REJIMLARI, JADVAL YARATISH, JADVAL BUYICHA XARAKATLANISH, JADVALLARARO BOG'LANISHLAR O'RNATISH TEXNOLOGIYASI. |
|----------|---|

3.4. Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

| | |
|--|---|
| Vaqt: 2 soat | Talabalar soni: ____ nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Jadvallar bilan ish olib borish 2. Konstruktor jadvallar oynasi |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarning jadvallar bilan ishlash rejimlari, jadval yaratish, jadval buyicha xarakatlanish, jadvallararo bog'lanishlar o'rnatish texnologiyasi bo'yicha bilim va malakasini shakllantirish. | |

| | | |
|--|--|---|
| Pedagogik vazifalar: 1.Mavzu bo'yicha: muammolar, izlanishlar yechimlar haqda tushunchalar berish 2.Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni tushuntirib berish. | | O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1.Mavzu bo'yicha: muammolar, izlanishlar yechimlar haqida tushunchalarga ega bo'ladi. 2.Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar va ulardan foydalanishga ko'nikmalar hosil bo'ladi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blis-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi | |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. | |
| O'qitish shakli | Jamo'a, guruh va juftlikda ishlash. | |
| O'qitish shart-sharoiti | Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya | |

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|-------------------------------------|--|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadi-gan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi. | 1.1. Eshitadilar va yozib oladilar. |
| 2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa) | 2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida tezkor so'rovlar o'tkaziladi. 2.3. Muammoli savollarni o'rtaga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: | 2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daf-tarlariga chizadi. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi, |
| 3 bosqich. Yakuniy | 3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda | 3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. |

| | | |
|-------------|---|--------------------------|
| (10 daqiqa) | faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. | 3.2. Rag'batlantiriladi. |
|-------------|---|--------------------------|

Jadvallar bilan ish olib borish

ACCESS informatsiya bazasi bir-biri bog'liq bir qancha jadvallardan iborat bo'lib (relyasion jadvallar), ularda qandaydir turdagi, formatdagi va ko'rinishdagi ma'lumotlar majmuasi saqlanadi. Masalaning bunday qo'yilishi ob'ektlarni saqlash, nusxalash, yo'qotish va boshqa operatsiyalarning amalga oshirilishini ancha osonlashtiradi.

ACCESS informatsiya bazasida quyidagi turdagi ma'lumotlarning turlarini ishlatishingiz mumkin:

| | | |
|------------------------|---------|--|
| Schetchik number) | (Auto | Jadvalga har bir "YAngi yozuv" qo'shilishi bilan avtomatik ravishda bittaga ko'payadigan son. Bu maydon qiymatini o'zgartirib bo'lmaydi. |
| Pul (Currency) | birligi | Bu maydon pul birliklarini kiritishga mo'ljallangan. |
| Sana/Vaqt (Data/Time) | | Bu maydonga vaqt yoki sana yoki ularning kombinatsiyasi kiritilishi mumkin. |
| Gipermatn (Hyperlink) | | Ushbu maydon Web-sahifalar, ma'lumotlar bazalari ob'ekti yoki boshqa faylga o'tish uchun ishlatiladigan gipermatnlar adreslarini o'z ichiga oladi. |
| Maydon (Lookup Wisard) | Masteri | Bu turdagi maydonda "Maydon masteri" ishga tushadi va maydonga yoziladigan kattaliklarga chegaralanishlar qo'yadi. |
| MEMO (Memo) | | Bu maydonda kattaligi chegaralanmagan matn bo'lishi mumkin. |
| Maydoni (Number) | Sonli | Bu maydon istalgan formatdagi sonli qiymatlarni o'z ichiga oladi. |
| OLE turidagi ob'ekt | | Biror bir boshqa amaliy dastur tomonidan hosil qilingan ob'ekt (OLE – Object Linking and Embedding – masalan, jadval yoki rasm). |
| Matn (TEXT) | | Bu maydon o'z ichiga matnni oladi (xat, sonlar va boshqa simvollar) |
| Mantiqiy (Logec) | | Ikki xil qiymatdan (Yes/No) biringina qabul qila oladigan mantiqiy qiymatlar |

Jadvalning har bir maydoni uchun Siz mumkin bo'lgan biror-bir ma'lumotlar turini tanlab olishingiz kerak. Har bir maydonda faqatgina bir xil turdagi ma'lumotlarga saqlanishi mumkin.

Ushbu jadval konstruktori darchasida ma'lumotlar turini aniqlashdan tashqari quyidagilarni ham bajara olasiz:

- maydonni kalitli yoki indeksli sifatida aniqlash;
- maydonda kattalikning albatta kiritilishi sharti;

- maydon formatini aniqlash;
- maydonga biror bir qo‘shimcha yozuv kiritish (u formada aks etib turadi);
- boshqa bir qancha imkoniyatlar.


ACCESS informatsiya bazasidagi hamma operatsiyalar juda oddiy holda sichqoncha turidagi manipulyator orqali osongina bajariladi. Sichqoncha bilan biror bir maydonni bossangiz, uning o‘ng chekkasida ro‘yxatni ochishga imkon beradigan tugmacha hosil bo‘ladi. Siz uni bosish bilan ro‘yxatdan kerakli imkoniyatini (Opsiyani) tanlab olasiz.

Agarda jadvalni o‘zingiz tuzishga qiynalsangiz, bu ishda Sizga “Master”lar yordamga keladi. Bular tegishli ishlar ketma-ketligini osongina amalga oshirishga yordam beradi.

3. Konstruktor jadvallar oynasi

Ma’lumot bazasini yaratishning ikki yo‘li: oddiy yo‘l va baza qurish Ustasi (Master) yordami taklif etiladi. Oddiy yo‘lni tanlash uchun “Novaya baza данных” punkti tanlanadi. “Usta” yordami esa “Zapusk mastera” punkti orqali amalga oshiriladi. Mavjud bazani ochish uchun “Открыт базу данных” punkti tanlanadi va OK tugmachasi bosiladi (2-rasmga qaralsin).

Ma’lumotlar bazasi yaratishning oddiy yo‘lidan boramiz. Bunda biz yuqoridagi oynadan «Novaya baza данных» bo‘limini tanlaymiz. SHu holda quyida keltirilgan so‘rov dialog oynasi hosil bo‘ladi:



3-rasm. Bazaning so‘rov oynasi

Bu darchada etti xil imkoniyat taklif etiladi (agar bu imkoniyatlar ko‘rinmayotgan bo‘lsa, Ob‘ekty tugmachasini bosasiz. Jadval yaratish (Tablitsy), so‘rov shaklini yaratish (Zaprosy), ma‘lumotlarni kiritish shakllarini yaratish (Formy), ma‘lumotlarni chiqarish shakllarini yaratish (Otchetny). Ma‘lumotlarga bevosita kirish sahifasi (Stranitsy), Makroslar va Modullar yaratish imkoniyati mavjud. Biz eng avvalo bazaning asosi bo‘lgan jadvalni yaratishimiz zarur. SHuning uchun «Tablitsy» imkoniyatini tanlaymiz. Bunda jadvalni yaratishning uchta yo‘li taklif etiladi: konstruktor yordami bilan jadval tashkil etish (sozdanie tablitsy v rejime konstruktora), jadval Ustasi yordami bilan jadval tashkil etish (sozdanie tablitsy s pomoshyu mastera) va nihoyat ma‘lumotlarni kiritish yo‘li bilan hosil qilinadigan oddiy jadval tuzish tartibi (Sozdanie tablitsy putem vvoda dannyx) maydonlari nomi probellarni (bo‘sh joylarni) ham hisobga olgan holda 64 simvoldan iborat bo‘lishi mumkinligini esdan chiqarmang.

Jadvalning maydonlarini aniqlash uchun:

- Imya polya (maydon nomi) ustunining birinchi qatoriga birinchi maydonning nomini kiriting: O‘qituvchi kodi

- Tip dannyx (Ma‘lumotlar turi) ustunining qatorida uni sichqoncha ko‘rsatkichi bilan turtganda hosil bo‘ladigan pastki tomonga yo‘nalgan strelkachali tugmachani turtganda ochiladigan ro‘yxatdan ma‘lumotlarning Schetchik deb nomlangan maydon ko‘rsatgichlarini dastur taklif qilgan ko‘rinishda qoldirganingiz ma‘qul.

- Xuddi shunday tartibda yuqorida ko‘rsatilgan jadvaldan foydalangan holda uning barcha maydonlarini ma‘lumotlar bazasiga kiriting.

Ushbu konstruktor darchasining “Opisanie” (Tavsif) deb nomlangan ustuni qatorlarina ma‘lumot kiritish shart emas, chunki u maydon haqidagi qo‘shimcha ma‘lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladi.

4. Hosil qilingan jadvalni saqlash uchun:

- **«Fayl» menyusidan «soxranit» (saqlansin) punktini tanlang;**

- «Soxranenie» deb nomlangan muloqot oynasida jadvalning nomini kiriting: O‘qituvchilar

- Undan so‘ng OK tugmachasini bosing.


OK tugmachasi bosilganda ACCESS ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimi Sizga kalit maydonni (boshlang‘ich kalit maydonini) aniqlashni talab qilishi mumkin. Bu maydon dastur tomonidan avtomatik ravishda jadvalning har bir yozuvini aniq ifodalashga (aniqlashga) imkon beradi. Ko‘p jadvallardan iborat bo‘lgan ma‘lumotlar bazalari uchun bu katta ahamiyatga ega bo‘ladi. agar ma‘lumot bazangiz bittagina jadvaldan iborat bo‘lsa, bu ish unchalik ahamiyatga ega emas, shuning uchun ushbu holda «net» (yo‘q) tugmasini turtg.

Jadvalning konstruktor rejimidagi darchasining pastki qismidagi Obshie (Umumiy) tugmachasi bosilganida kiritilgan maydonning bir qancha ko‘rsatgichlari ekranda namoyon bo‘ladi. ularning barchasini o‘zgartirish mumkin. Lekin bizning maslahatimizga rioya qilsangiz «Razmer polya» (Maydon kattaligi) punktinigina

o'zgartiring, boshqalarini esa hozircha o'zgartirishsiz qoldiring (ularning nima vazifalar uchun xizmat qilishini keyinchalik ko'rib chiqamiz).

Masalan, ACCESS ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi matnli ma'lumotlar uchun 50 simvulli kattalikni taklif qiladi. Lekin Familiya, Ismi, Otasining ismi va shu kabi maydonlar kattaligi 15 simvoldan katta bo'lishi mumkin emas. Agarda ularning bundan kattasi uchrab qolsa, keyinchalik osonlik bilan o'zgartirish mumkin. Sonli maydon turlari uchun ACCESS dasturi «Dlinnoe seloe» (Uzun butun son) turini taklif qiladi. Lekin agarda Sizning sonli ma'lumotlaringiz butun sonlar (-32768 dan +32767 gacha) bo'lsa «Seloe» (Butun) imkoniyatini tanlash kerak, agar ular kasr sonlar bo'lsa, u holda «S plavayushyey tochkoy» (Suzuvchi nuqtali sonlar – Kasr sonlar) imkoniyatini tanlash kerak bo'ladi. Kerakli imkoniyatni yoki ko'rsatgichni tanlash kerak bo'ladi. kerakli imkoniyatni yoki ko'rsatgichni tanlash uchun sichqoncha ko'rsatgichini maydonga keltirgan holda uni bir marta turtish kerak bo'ladi, keyin esa hosil bo'lgan pastga yo'nalgan strelka shaklidagi ro'yxatni ochish tugmachasini bosilsa, tegishli ro'yxat hosil bo'ladi va Siz undan kerakli imkoniyatni tanlab olishingiz mumkin. Bu ishlarni bajarish natijasida yaratayotgan jadvalingiz ixcham va oddiy holatga bo'linganidan so'ng, uni saqlaysiz. Demak, birinchi usulda jadval yaratish jarayoni nihoyasiga etdi deyishimiz mumkin.

Endi ikkinchi usulda, ya'ni «Jadval ustasi» yordamida jadval qurish usulini ham ko'rib chiqamiz. Bu usulda jadval qurish oldindan ma'lum bo'lgan bir necha turdagi jadvallar namunalariga asosan yaratilayotgan jadval ko'rsatkichlarini tanlash yo'li bilan amalga oshadi. Buning uchun (qurish, Sozdat – «Master» tablits) tugmachasini bir marta turtish yoki «Usta» yordamida jadval hosil qilish (Sozдание tablitsy s pomoshyu mastera) yozuvini ikki marta turtish lozim bo'ladi. Bunda ekranda quyidagi oyna hosil bo'ladi:




6-рasm. Jadvallar ustasi darchasining ko'rinishi

Hosil bo'lgan oynada jadvallar namunalari (Образсы tablits) va ko'rsatkich (maydon)lar namunalari (Образсы poley) oynalari bor. Ma'qul kelgan

namunadagi jadvaldan tegishli ko'rsatkichlar tanlab olinadi va yangi jadval ko'rsatkichlari hosil qilinadi. Agar zarur ko'rsatkich namunadagi jadvalda bo'lmasa, biror-bir ko'rsatkichni tanlab, uning nomini klaviaturadan foydalanib o'zgartirish mumkin (Pereimenovat pole).


Har bir ko'rsatkich tanlanganidan so'ng >> (hammasi) yoki > (bittadan) tugmachalarini sichqoncha bilan bosish orqali ko'rsatkichlar yangi jadvalga o'tkaziladi.

Yuqorida aytilgan ishlarni tushunish va bajara olish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz. Bunda jadvallar namunasi «Sotrudniki» (Xodimlar) jadvali tanlanib, unga tegishli «Табельный номер», «Имя», «Отчество», «Фамилия» kabi ko'rsatkichlar ham yangi jadvalga nom beriladi. Undan so'ng jadvalning boshqa jadvallar bilan bog'liqligi yoki bog'liq emasligi haqida so'rov hosil bo'ladi, uni ham aniqlagandan so'ng yana «Далее» tugmachasi bosiladi. Endi kerakli ishlar bajarilib, «Готово» tugmachasi bosilishi kerak bo'ladi. Bunda ekranda tuzilgan jadvalimiz ustunlar shaklida osil bo'ladi va biz unga kerakli barcha ma'lumotlarni kiritishimiz mumkin. Agarda bizga maydonlarning tuzilishini ko'rib chiqish va unga kerakli o'zgartirishlar kiritish kerak bo'lsa (masalan, kalit maydonlarni tanlash kerak bo'lsa) yana konstruktor rejimiga o'tishimiz mumkin. Buning uchun «Vid» menyusidan yoki uskunalar panelining «Vid» uskunasiidan foydalangan holda Konstruktor rejimiga o'tiladi. Bu ko'rinishni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.




14.4. Kalit maydonlarini aniqlash

Endi jadvalning kalitini aniqlashimiz lozim bo‘ladi. Kalit deganda har bir jadvalning boshqa jadvallar bilan aloqasini aniqlab beradigan maydon yoki maydonlar majmuasi tushuniladi. Kalitni berish uchun tegishli maydon yoki maydonlarni belgilab (maydonni belgilash uchun sichqoncha ko‘rsatgichini chapdagi eng chetki qatorga keltiriladi va uning chap tugmachasi bir marta turtiladi). Uskunalar panelidan kalit rasmi tugmacha bosiladi yoki sichqonchani o‘ng tugmachasini bosib, hosil bo‘lgan konstekt menyudan Klyuchevoe slovo buyrug‘i tanlanadi. Bunda tanlangan qatorlar to‘g‘risida (birinchi ustunda) kalitchaning tasviri hosil bo‘ladi. Tanlanganda hamma kalitli qatorlarni birdaniga belgilash yodingizdan chiqmasin. Ushbu holatni quyidagi tasvirda ko‘rish mumkin.




Endi hosil bo‘lgan jadvalni saqlash uchun «Uskunalar» panelidan «Disket» rasmi tugmachani bosamiz yoki «Fayl» menyusidan «Soxranit» buyrug‘ini tanlaymiz. Navbatdagi ishimiz hosil bo‘lgan bo‘sh jadvalni ko‘rish bo‘lgani uchun «Uskunalar» panelidan «Vid» (Ko‘rinish) deb nomalangan tugmachani bosamiz. Bunda quyidagi imkoniyatlar hosil bo‘ladi: «Konstruktor» va «Rejim tablitsy» buyrug‘ini tanlasak, quyida ko‘rsatilgan bo‘sh jadvalni tasvirini olamiz.




7-рasm. «Режим tablitsы» da hosil bo‘ladigan bo‘sh jadvalning ko‘rinishi.

Bu oynada hosil qilingan jadvalga ma’lumot kiritish uchun tegishli maydonlarga ularning qiymatlarini klaviatura orqali kiritishimiz mumkin. Agarda uning tuzilishini o‘zgartirmoqchi bo‘lsak yoki unga boshqa maydonlar qo‘shmoqchi bo‘lsak «Vid» menyusidagi «Konstruktor» rejimiga o‘tishimiz lozim bo‘ladi. Masalan, jadvalga xodimning ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettiridigan ustunni qo‘shish uchun «Vid» menyusidan Konstruktor buyrug‘ini tanlab olamiz va hosil bo‘lgan jadvalda tegishli qatorni sichqoncha bilan belgilab Uskunalar panelidagi «Postroit» tugmachasini bosamiz. Undan so‘ng hosil bo‘lgan oynadan «Sotrudniki» hamda «Zarplata» imkoniyatlarini tanlaymiz va OK tugmachasini bosamiz. Bu holda kompyuter ekranida quyidagi darchaga ega bo‘lamiz:




Endi Uskunalar panelidagi «Vid» menyusidan «Rejim tablitsy» buyrug'ini tanlasak, quyidagi tuzilishdagi bo'sh jadval ko'rinishi ekranda hosil bo'ladi:



Bu jadvalni ham yuqoridagi tartibda klaviatura orqali tegishli ma'lumotlar bilan to'ldirishimiz mumkin.


Endi ma'lumotlarni jadvalga to'g'ridan-to'g'ri kiritishni ko'rib chiqamiz. Yuqorida ko'rsatilgan soliq to'lovchi jismoniy shaxslar haqidagi jadvalga ma'lumotlarni kiritish jarayoni quyidagi rasmda keltirilgan:



Ushbu jadvalni yuqorida ko'rib chiqilgan jadvaldan foydalangan holda qurish uchun har bir ustun nomini o'zgartirishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun sichqoncha ko'rsatgichini o'zgartirishi kerak bo'lgan katakchaga olib kelib, sichqonchanning o'ng tugmachasini bosamiz va hosil bo'lgan kontekst menyudan «Pereimenovat stolbets» buyrug'ini tanlaymiz. Keyin esa klaviatura orqali yangi


nomni kiritamiz. Xar bir ustun nomi uchun ushbu amalni bajarsak, yuqoridagi jadval hosil bo‘ladi.

Ushbu jadvalni hosil qilishning ikkinchi, osonroq usuli ham mavjud. Buning uchun Access dastursi yuklanganidan so‘ng, uning asosiy panelida (Ushbu oyna 3 – rasmda ko‘rsatilgan) oldingi tanlaganimizdan farqli ravishda ikkinchi imkoniyatni (Sozdanie tablitsy s pomoshyu mastera) tanlaymiz. Bunda ekranda quyidagi oyna hosil bo‘ladi:



Jadval hosil qilish.

4. Hosil bo‘lgan ma’lumotlar bazasi oynasidan **Tablitsy** ob’ektini aktivlashtiring va **sozdat** tugmasini sichqonchanning chap tugmasi bilan bir marta bosing.



1.12 chizma. Jadval hosil qilishning usullari.

- **Режим tablitsy**-ma’lumotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri jadvalga kiritish yo‘li. Bu usul bilan **Sozdanie tablitsy putyom vvoda dannyx** usuli bir xildir.

- **Svyaz s tablitsami-** bu usul tanlanganda boshqa ma'lumotlar bazasidan biror jadvalni joriy fayl bilan bo'g'lashingiz mumkin. Bu usul ham import usuliga oxshaydi. Bu usulda bog'langan jadvalda ixtiyoriy o'zgarishlar kiritish mumkin emas. Ammo o'z faylingizdan turib aloqa o'rnatilgan jadvalga o'zgartirish kiritilsa, bu o'zgartirishlar aloqa o'rnatilgan boshqa fayldagi mazkur jadvalning o'zgarishiga ham sabab bo'ladi.

8-MAVZU: HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH. HISOBOTLAR BILAN ISHLASH REJIMLARI

| | |
|----------|--|
| 8 -mavzu | HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH. HISOBOTLAR BILAN ISHLASH REJIMLARI ASOSIY FUNKSIYALAR. YOZUVLAR BILAN ISHLOVCHI KOMANDA VA FUNKSIYALAR |
|----------|--|

3.5. Ma'ruza mashg'ulotining pedagogik texnologiyasi

| | |
|--|---|
| Vaqti: 2 soat | Talabalar soni: ____ nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1.set komandalari. . 2.to'la ekran komandalari. 3.asosiy funksiyalar. 4.yozuvlar bilan ishlovchi komanda va funksiyalar |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarning set komandalari. To'la ekran komandalari. asosiy funksiyalar. yozuvlar bilan ishlovchi komanda va funksiyalar bo'yicha bilim va malakasini shakllantirish. | |
| Pedagogik vazifalar: 5. Mavzu bo'yicha: muammolar, izlanishlar yechimlar haqida tushunchalar berish 6. Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni tushuntirib berish. | O'quv faoliyati natijalari: Talaba: 1.Mavzu bo'yicha: muammolar, izlanishlar yechimlar haqida tushunchalarga ega bo'ladi. 2.Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar va ulardan foydalanishga ko'nikmalar hosil bo'ladi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blis-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |

| | |
|-------------------------|---|
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya |

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi


| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|--------------------------------------|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi. | 1.1. Eshitadilar va yozib oladilar. |
| 2 bosqich. Asosiy (60 daqiqa) | 2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushuncha-larga qaratadi. Blis-so'rov o'tka-zadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida tezkor so'rovlar o'tkaziladi. 2.3. Muammoli savollarni o'rta tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi, daf-tarlariga chizadi. 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. 2.4. Ta'rifni yozib oladi, |
| 3 bosqich. Yakuniy (10 daqiqa) | 3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. | 3.1. Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. 3.2. Rag'batlantiriladi. |

Ҳисоботлар ташкил қилиш

Ҳисобот—бу натижалар акс этган қоғозли ҳужжат демакдир. МБ мулоқот ойнасида **Отчёт** ни танлаб **Создать** тугмасини боссак, Ҳисоботларни яратиш


усуллари ҳосил бўлади.

Экранда ҳосил бўлган мулоқот ойнасида янги ҳисобот тузишнинг бир қатор усуллари таклиф қилинади:



- **Конструктор** — мустақил равишда янги ҳисобот тузиш;
- **Мастер отчетов** — танланган майдонлар асосида автоматик равишда янги ҳисоботлар тузиш;
- **Автоотчёт: в столбец** (устун кўринишида)— майдонларни автоматик равишда битта устунга жойлаштирган ҳолда ҳисобот тузиш;
- **Автоотчёт: ленточный** — майдонларни автоматик равишда лентасимон жойлаштирилган ҳолда ҳисоботлар тузиш;
- **Мастер диаграмм** — диаграммалар асосида ҳисоботлар тузиш;
- **Почтовые наклейки** — почта маркаларини нашр қилиш учун форматланган ҳисоботлар тузиш.

Ҳисоботларни тузиш учун ҳам худди формалар тузишдаги каби ҳисоботларни тузиш усулларида бири танлангач, мулоқот ойнасининг пастки қисмида ҳисобот тузилувчи жадвал ёки сўров номи кўрсатилади.



Худди форма каби ҳисобот ҳам бошқариш элементларига эга қисмлардан ташкил топган. Ҳисобот тузилмаси 5 қисмдан иборат бўлади: Ҳисобот сарлавҳаси; юқори колонтитул; маълумотлар жойлашган жой; қуйи колонтитул; ҳисобот эслатмаси.

Одатда, ҳисобот тузилмаси билан танишиш учун автоматик равишда ҳисобот ташкил қилиб, уни **Конструктор** тартибида очиш қулай. Бунда ҳисобот сарлавҳаси умумий сарлавҳани чоп этишни таъминлайди, юқори

колонтитул қисмлари эса сарлавҳага тегишли кичик сарлавҳачаларни ифодалайди. Маълумотлар майдонида эса бошқарув элементлари жойлаштирилиб, улар, асосан, маълумотлар базаси майдонлари мазмуни билдиради. Қуйи колонтитул қисмида худди юқори колонтитул каби бошқариш элементларига эга, Time функцияси билан вақтни ва Page функцияси билан ҳисобот варақлари белгиланади. Ҳисобот эслатмасида эса ёрдамчи ахборотлар киритилади.

Тузилган жадвал, сўров, форма ва ҳисоботларни фойдаланувчига керакли ҳолатда принтерга чиқариш мумкин. Бунинг учун керакли объектни танлаб олиш, сўнгра асосий менюнинг файл пунктидан **Печать** буйругига кириш лозим.

Yozuv - mantikan boglangan rekvizitlarga mos keluvchi maydonlar yigindisidir. Yozuvning tuzilishi uz tarkibiga kiruvchi har bir oddiy ma'lumotga ega maydonlar tarkibi va ketma-ketligi bilan belgilanadi. Ma'lumotlar bilan amal bajarishning ilk tizimlari axborotlarni ishlashning an'anaviy usullariga asoslanib tuzilgan edi. Har bir muayyan xolat uchun tashqi foydalanuvchining uz mantiki ishlab chikiladi. U axborot tuzilmasi, tanlash operatsiyasi, axborotni kushiti va yuk qilish kabi tushun- chalarni uz ichiga oladi. Ma'lumotlar va dastur urtasidagi uzaro bogliklik

yuzaga keladi: ma'lumotlarni uzgartirishda yo dasturni almashtirish yoki ma'lumotlarni qaytadan buzishga zarur buladi.

МВВТning asosiy vositalari quyidagilar

- ◆ ma'lumotlar bazalari tuzilmalariga topshirik berish (tasvirlash) vositalari;
- ◆ ma'lumotlarni kiritish, kurish va mulokotlar rejimida ishlashga muljallangan ekran shakllarini loyixalash vositalari;
- ◆ berilgan sharoitlarda ma'lumotlarni tanlash uchun talablar yaratish, shuningdek, ularni ishlash buyicha operatsiyalar bajarish vositalari;
- ◆ foydalanuvchiga kulay kurinishda ishlov natijalarini bosmaga chikarish uchun ma'lumotlar bazasidan xisobot yaratish vositalari;
- ◆ til vositalari - makroslar, kurilgan algoritmik til (Dbase, Visual Basic yoki boshalar), talablar tili (QBE- Query Example, SQL) va xk. Ular ma'lumotlarni ishlashning nostandart algoritmlarini, shuningdek foydalanuvchi topshiriklaridagi vokealarni ishlash protseduralarini bajarish uchun kullaniladi. Ma'lumotlar bazalari bilan ishlash turli opera-siyalarini yagona texnologik jarayonga birlashtirishga imkon beruvchi foydalanuvchi ilovalarini yaratish vositalari (ilovalar generatorlari, menyu va ilovalarni boshkarish panellarining vositalari)

**9-MAVZU: FORMALARNI HOSIL QILISH. FORMALAR BILAN ISHLASH
REJIMLARI**

| | |
|-----------------|--|
| 9 -mavzu | FORMALARNI HOSIL QILISH. FORMALAR BILAN ISHLASH REJIMLARI |
|-----------------|--|

3.6. Ma’ruza mashg’ulotining pedagogik texnologiyasi


| | |
|--|---|
| Vaqt: 2 soat | Talabalar soni: ____ nafar |
| O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1. sql – so’rovlari. 2. sql ifodalarini kiritish |
| O’quv mashg’ulotining maqsadi: talabalarning : sql – so’rovlari, sql ifodalarini kiritish bo’yicha bilim va malakasini shakllantirish. | |
| Colombia | Bagota | South America | 1138907 | 33000000 |
| Cuba | Havana | North America | 114524 | 10600000 |
| Ecuador | Quito | South America | 455502 | 10600000 |
| El Salvador | San Salvador | North America | 20865 | 5300000 |
| Guyana | Georgetown | South America | 214969 | 800000 |
| Jamaica | Kingston | North America | 11424 | 2500000 |
| Mexico | Mexico City | North America | 1967180 | 88600000 |

SQL tilida shimoliy Amerikada yashovchi

axolining zichligini xisoblovchi so‘rov yozing

Masalaning javobi № 10: SELECT name,(population/area) AS plotnost FROM country WHERE Continent = “North America”

Masala № 11.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:

| LastName | FirstName | PhoneExt | HireDate | Salary |
|--------------|-----------|----------|------------|------------|
| Nelson | Roberto | 250 | 28.12.1988 | 40000 |
| Young | Bruce | 233 | 28.12.1988 | 55500 |
| Lambert | Kim | 22 | 06.02.1989 | 25000 |
| Johnson | Leslie | 410 | 05.04.1989 | 25050 |
| Forest | Phil | 229 | 17.04.1989 | 25050 |
| Weston | K. J. | 34 | 17.01.1990 | 33292,9375 |
| Lee | Terri | 256 | 01.05.1990 | 45332 |
| Hall | Stewart | 227 | 04.06.1990 | 34482,625 |
| Young | Katherine | 231 | 14.06.1990 | 24400 |
| Papadopoulos | Chris | 887 | 01.01.1990 | 25050 |
| Fisher | Pete | 888 | 12.09.1990 | 23040 |
| Bennet | Ann | 5 | 01.02.1991 | 34482,8 |
| De Souza | Roger | 288 | 18.02.1991 | 25500 |
| Baldwin | Janet | ? | 21.03.1991 | 23300 |

SQL tilida Salary maydonidagi qiymatlarga ularning 10% kushilishidan xosil bo‘lgan yozuvlarni chikaruvchi so‘rov yozing. Bunda Salary=25050, 23300, yoki 45332.

Masalaning javobi № 11:


```
SELECT Lastname,Firstname,(salary+salary*0.1) AS sala FROM employee  
WHERE Salary=25050 OR Salary=23300 OR Salary=45332
```

yoki

```
SELECT Lastname,Firstname,(salary+salary*0.1) AS sala FROM employee  
WHERE Salary IN (25050,23300,45332)
```

Masala № 12.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:



| Name | Capital | Continent | Area | Population |
|-------------|--------------|---------------|---------|------------|
| Argentina | Buenos Aires | South America | 2777815 | 32300003 |
| Bolivia | La Paz | South America | 1098575 | 7300000 |
| Brazil | Brasilia | South America | 8511196 | 150400000 |
| Canada | Ottawa | North America | 9976147 | 26500000 |
| Chile | Santiago | South America | 756943 | 13200000 |
| Colombia | Bagota | South America | 1138907 | 33000000 |
| Cuba | Havana | North America | 114524 | 10600000 |
| Ecuador | Quito | South America | 455502 | 10600000 |
| El Salvador | San Salvador | North America | 20865 | 5300000 |
| Guyana | Georgetown | South America | 214969 | 800000 |
| Jamaica | Kingston | North America | 11424 | 2500000 |
| Mexico | Mexico City | North America | 1967180 | 88600000 |


SQL tilida
janubiy
Amerikada
yashovchi
axolining
zichligini
xisoblovchi
so'rov
yozing

**Masalaning
javobi №
12:** SELECT

```
name,(population/area) AS plotnost FROM country WHERE Continent = "South  
America"
```

Masala № 13.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:



| LastName | FirstName | PhoneExt | HireDate | Salary |
|--------------|-----------|----------|------------|------------|
| Nelson | Roberto | 250 | 28.12.1988 | 40000 |
| Young | Bruce | 233 | 28.12.1988 | 55500 |
| Lambert | Kim | 22 | 06.02.1989 | 25000 |
| Johnson | Leslie | 410 | 05.04.1989 | 25050 |
| Forest | Phil | 229 | 17.04.1989 | 25050 |
| Weston | K. J. | 34 | 17.01.1990 | 33292,9375 |
| Lee | Terri | 256 | 01.05.1990 | 45332 |
| Hall | Stewart | 227 | 04.06.1990 | 34482,625 |
| Young | Katherine | 231 | 14.06.1990 | 24400 |
| Papadopoulos | Chris | 887 | 01.01.1990 | 25050 |
| Fisher | Pete | 888 | 12.09.1990 | 23040 |
| Bennet | Ann | 5 | 01.02.1991 | 34482,8 |
| De Souza | Roger | 288 | 18.02.1991 | 25500 |
| Baldwin | Janet | 7 | 21.03.1991 | 23300 |

SQL tilida HireDate maydoni 28.12.1988 va 12.09.1990 oralikdagi qiymatlarini beruvchi so‘rov yozing

Masalaning javobi № 13: SELECT LastName,Salary FROM employee WHERE HireDate BETWEEN ‘28.12.1988’ AND ‘12.09.1990’

Masala № 14.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:

| | Company | City | Country | Contact | LastInvoiceDate |
|---|-------------------------------|---------------|---------------------|-----------------|-----------------|
| + | Kauai Dive Shoppe | Kapaa Kauai | US | Erica Norman | 02.02.1995 |
| + | Unisco | Freeport | Bahamas | George Weather | 17.11.1994 |
| + | Sight Diver | Kato Paphos | Cyprus | Phyllis Spooner | 18.10.1994 |
| + | Cayman Divers World Unlimited | Grand Cayman | British West Indies | Joe Bailey | 30.01.1992 |
| + | Tom Sawyer Diving Centre | Christiansted | US Virgin Islands | Chris Thomas | 20.03.1992 |
| + | Blue Jack Aqua Center | Waipahu | US | Ernest Barratt | 08.11.1994 |
| + | VIP Divers Club | Christiansted | US Virgin Islands | Russell Christo | 01.02.1995 |
| + | Ocean Paradise | Kailua-Kona | US | Paul Gardner | 09.11.1994 |
| + | Fantastique Aquatica | Bogota | Columbia | Susan Wong | 18.07.1994 |
| + | Marmot Divers Club | Kitchener | Canada | Joyce Marsh | 07.07.1990 |
| + | The Depth Charge | Marathon | US | Sam Witherspoon | 09.04.1994 |
| + | Blue Sports | Giribaldi | US | Theresa Kunec | 09.05.1991 |
| + | Makai SCUBA Club | Kailua-Kona | US | Donna Siaus | 07.01.1995 |
| + | Action Club | Sarasota | US | Michael Spurlin | 18.10.1993 |

SQL tilida LastInvoiceDate maydoni 17.11.1994 va 10.01.1995 oralikdagi qiymatlarini beruvchi so‘rov yozing. Bunda davlat US.

Masalaning javobi № 14: SELECT Company, City, Contact FROM customer WHERE LastInvoiceDate BETWEEN ‘17.11.1994’ AND ‘10.01.1995’ AND Country=’US’

Masala № 15.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:

| | LastName | FirstName | PhoneExt | HireDate | Salary |
|---|--------------|-----------|----------|------------|------------|
| + | Nelson | Roberto | 250 | 28.12.1988 | 40000 |
| + | Young | Bruce | 233 | 28.12.1988 | 55500 |
| + | Lambert | Kim | 22 | 06.02.1989 | 25000 |
| + | Johnson | Leslie | 410 | 05.04.1989 | 25050 |
| + | Forest | Phil | 229 | 17.04.1989 | 25050 |
| + | Weston | K. J. | 34 | 17.01.1990 | 33292,9375 |
| + | Lee | Terri | 256 | 01.05.1990 | 45332 |
| + | Hall | Stewart | 227 | 04.06.1990 | 34482,625 |
| + | Young | Katherine | 231 | 14.06.1990 | 24400 |
| + | Papadopoulos | Chris | 887 | 01.01.1990 | 25050 |
| + | Fisher | Pete | 888 | 12.09.1990 | 23040 |
| + | Bennet | Ann | 5 | 01.02.1991 | 34482,8 |
| + | De Souza | Roger | 288 | 18.02.1991 | 25500 |
| + | Baldwin | Janet | 7 | 21.03.1991 | 23300 |

SQL tilida LastName maydonid

agi 'e' ta simvol>' satrosti katnashgan kiymatlarini beruvchi so'rov yozing.

Masalaning javobi № 15:

SELECT * FROM employee WHERE Salary LIKE 'e_t'

Masala № 16.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:



| Name | Capital | Continent | Area | Population |
|-------------|--------------|---------------|---------|------------|
| Argentina | Buenos Aires | South America | 2777815 | 32300003 |
| Bolivia | La Paz | South America | 1098575 | 7300000 |
| Brazil | Brasilia | South America | 8511196 | 150400000 |
| Canada | Ottawa | North America | 9976147 | 26500000 |
| Chile | Santiago | South America | 756943 | 13200000 |
| Colombia | Bagota | South America | 1138907 | 33000000 |
| Cuba | Havana | North America | 114524 | 10600000 |
| Ecuador | Quito | South America | 455502 | 10600000 |
| El Salvador | San Salvador | North America | 20865 | 5300000 |
| Guyana | Georgetown | South America | 214969 | 800000 |
| Jamaica | Kingston | North America | 11424 | 2500000 |
| Mexico | Mexico City | North America | 1967180 | 88600000 |

SQL tilida Capital maydonidagi 'to' satrosti katnashgan kiymatlarini beruvchi so'rov yozing.

Masalaning javobi № 16: SELECT * FROM country WHERE Capital LIKE '%to%'

Masala № 17.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:



| LastName | FirstName | PhoneExt | HireDate | Salary |
|--------------|-----------|----------|------------|------------|
| Nelson | Roberto | 250 | 28.12.1988 | 40000 |
| Young | Bruce | 233 | 28.12.1988 | 55500 |
| Lambert | Kim | 22 | 06.02.1989 | 25000 |
| Johnson | Leslie | 410 | 05.04.1989 | 25050 |
| Forest | Phil | 229 | 17.04.1989 | 25050 |
| Weston | K. J. | 34 | 17.01.1990 | 33292,9375 |
| Lee | Terri | 256 | 01.05.1990 | 45332 |
| Hall | Stewart | 227 | 04.06.1990 | 34482,625 |
| Young | Katherine | 231 | 14.06.1990 | 24400 |
| Papadopoulos | Chris | 887 | 01.01.1990 | 25050 |
| Fisher | Pete | 888 | 12.09.1990 | 23040 |
| Bennet | Ann | 5 | 01.02.1991 | 34482,8 |
| De Souza | Roger | 288 | 18.02.1991 | 25500 |
| Baldwin | Janet | 7 | 21.03.1991 | 23300 |

SQL tilida urtacha oylikni xisoblovchi so‘rov yozing.

Masalaning javobi № 17:


SELECT AVG(Salary) AS average FROM employee

yoki

SELECT SUM(Salary)/COUNT(Salary) AS average FROM employee

Masala № 18.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:



| Name | Capital | Continent | Area | Population |
|-------------|--------------|---------------|---------|------------|
| Argentina | Buenos Aires | South America | 2777815 | 32300003 |
| Bolivia | La Paz | South America | 1098575 | 7300000 |
| Brazil | Brasilia | South America | 8511196 | 150400000 |
| Canada | Ottawa | North America | 9976147 | 26500000 |
| Chile | Santiago | South America | 756943 | 13200000 |
| Colombia | Bagota | South America | 1138907 | 33000000 |
| Cuba | Havana | North America | 114524 | 10600000 |
| Ecuador | Quito | South America | 455502 | 10600000 |
| El Salvador | San Salvador | North America | 20865 | 5300000 |
| Guyana | Georgetown | South America | 214969 | 800000 |
| Jamaica | Kingston | North America | 11424 | 2500000 |
| Mexico | Mexico City | North America | 1967180 | 88600000 |

SQL tilida

eng katta maydonli davlatni aniklovchi so‘rov yozing.

Masalaning javobi № 18:


select area,Name, Max(area) AS areal from country Group By area,Name

yoki

select name,capital,continent,area from country ORDER BY area

Masala № 19.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:




| Name | Capital | Continent | Area | Population |
|-------------|--------------|---------------|---------|------------|
| Argentina | Buenos Aires | South America | 2777815 | 32300003 |
| Bolivia | La Paz | South America | 1098575 | 7300000 |
| Brazil | Brasilia | South America | 8511196 | 150400000 |
| Canada | Ottawa | North America | 9976147 | 26500000 |
| Chile | Santiago | South America | 756943 | 13200000 |
| Colombia | Bagota | South America | 1138907 | 33000000 |
| Cuba | Havana | North America | 114524 | 10600000 |
| Ecuador | Quito | South America | 455502 | 10600000 |
| El Salvador | San Salvador | North America | 20865 | 5300000 |
| Guyana | Georgetown | South America | 214969 | 800000 |
| Jamaica | Kingston | North America | 11424 | 2500000 |
| Mexico | Mexico City | North America | 1967180 | 88600000 |

SQL tilida Name maydonidagi 'il' satrosti katnashgan qiymatlarini beruvchi so'rov yozing.

Masalaning javobi № 19: SELECT * FROM country WHERE name LIKE '%il%'

Masala №20.

Quyidagi berilganlar bazasi jadvali uchun:



| Name | Capital | Continent | Area | Population |
|-------------|--------------|---------------|---------|------------|
| Argentina | Buenos Aires | South America | 2777815 | 32300003 |
| Bolivia | La Paz | South America | 1098575 | 7300000 |
| Brazil | Brasilia | South America | 8511196 | 150400000 |
| Canada | Ottawa | North America | 9976147 | 26500000 |
| Chile | Santiago | South America | 756943 | 13200000 |
| Colombia | Bagota | South America | 1138907 | 33000000 |
| Cuba | Havana | North America | 114524 | 10600000 |
| Ecuador | Quito | South America | 455502 | 10600000 |
| El Salvador | San Salvador | North America | 20865 | 5300000 |
| Guyana | Georgetown | South America | 214969 | 800000 |
| Jamaica | Kingston | North America | 11424 | 2500000 |
| Mexico | Mexico City | North America | 1967180 | 88600000 |

SQL tilida eng kichik sondagi axolini

aniklovchi so'rov yozing.

Masalaning javobi № 20:

```
select population,Name, Min(population) AS pop from country Group By population,Name
```

yoki

```
select name,capital,continent,population from country ORDER BY population
```

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQ NAMUNALARI

1 - TOPSHIRIQ

Ma'lumotlar bazasini hosil qilish.

YAngi ma'lumot bazasini hosil qiling:

1. Ma'lumot bazasining jadvalini hosil qiling;
2. Quyidagi jadvaldan foydalangan holda ma'lumotlar bazasi jadvalining maydonlarini hosil qiling;
3. Hosil qilingan jadvalni saqlang.

O'qituvchilar nomli ma'lumotlar jadvali:

| Maydon nomi | Ma'lumotlar turi | Maydon kattaligi yoki turi |
|------------------|------------------|----------------------------|
| o'qituvchi kodi | Schetchik | |
| Familiyasi | Matnli | 15 |
| Ismi | Matnli | 15 |
| Otasining ismi | Matnli | 15 |
| Tug'ilgan sanasi | Sana/vakt | qisqacha |
| Mansabi | Matnli | 9 |
| O'qitadigan fani | Matnli | 11 |
| Telefoni | Matnli | 9 |
| Maoshi | Pul birligi | |

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. *YAngi ma'lumotlar bazasini hosil qilish uchun:*

✓ Accessni ishga tushiring va uning asosiy oynasida **YAngi ma'lumotlar bazasi (Novaya baza данных)** punktini tanlang;

✓ **YAngi ma'lumotlar bazasi (Fayl novoy bazy данных)** oynasida hosil qilayotgan bazangizning nomini (**Imya fayla**) kiriting va ma'lumot bazangizning joylashadigan papkasini tanlang (**Papka** punkti). **Access** dasturi hosil qilinayotgan ma'lumotlar bazasiga avtomatik ravishda **db1** nomini beradi, faylning turini esa **Access ma'lumotlar bazasi (Baza данных Access)** deb taklif qiladi. Baza nomini **o'qituvchilar** deb tanlang, faylning turini esa o'zicha qoldiring, chunki maxsus nomdagi fayllar hozircha kerak emas. Bu ishlarni qilib bo'lgandan so'ng, **Sozdat (Hosil qilinsin)** tugmachasini bosing.

2. *Ma'lumotlar bazasining boshlang'ich jadvalini hosil qilish uchun:*

✓ Ma'lumotlar bazasi asosiy oynasidagi **Tablitsa (Jadval)** imkoniyatini tanlang va so'ngra **Sozdat** tugmachasini bosing;

✓ **Novaya tablitsa (YAngi jadval)** oynasida **Konstruktor** punktini tanlang va so'ngra **OK** tugmachasini bosing. Ushbu amallar natijasida jadvalning *konstruktor rejimidagi* darchasi ochiladi. Unda uchta maydon mavjud: **Imya polya (Maydon nomi)**, **Tip данных (Ma'lumotlar turi)** va **Opisanie (Maydon tavsifi)**. Bu darchadan foydalangan holda jadval maydonlarini aniqlash (kiritish) kerak bo'ladi. Jadval maydonlari nomi probellarni (bo'sh joylarni) ham xisobga olgan holda 64 simvoldan iborat bo'lishi mumkinligini esdan chikarmang.

3. *Jadvalning maydonlarini aniqlash uchun:*

✓ **Imya polya (Maydon nomi)** ustunining birinchi qatoriga birinchi maydonning nomini kiriting: **o'qituvchi kodi**

✓ Tip **данных** (Ma'lumotlar turi) ustunining qatorida uni sichqoncha ko'rsatgichi bilan turtganda hosil bo'ladigan pastki tomonga yo'nalgan strelkachali tugmachani turtganda ochiladigan ruyxatdan ma'lumotlarning **Schetnik** deb nomlangan turini tanlab oling. **Общие** (Umumiy) deb nomlangan maydon ko'rsatgichlarini dastur taklif qilgan ko'rinishda koldirganingiz ma'kul.

✓ Xuddi shunday tartibda yukorida ko'rsatilgan jadvaldan foydalangan holda uning barcha maydonlarini ma'lumotlar bazasiga kiriting.

Ushbu konstruktor darchasining **Описание (Tavsif)** deb nomlangan ustuni qatorlariga ma'lumot kiritish shart emas, chunki u joriy maydon haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladi.

4. **Hosil qilingan jadvalni saqlash uchun:**

✓ **Файл** menyusidan **Сохранить (Saqlansin)** punktini tanlang;

✓ **Сохранение** deb nomlangan muloqot oynasida jadvalning nomini kiriting: **o'qituvchilar**

✓ Undan so'ng **OK** tugmachasini bosing.

OK tugmachasi bosilganda **ACCESS** ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi Sizga kalit maydonni (boshlang'ich kalit maydonini) aniqlashni talab qilishi mumkin. Bu maydon dastur tomonidan avtomatik ravishda jadvalning har bir yozuvini anik ifodalashga (aniqlashga) imkon beradi. Ko'p jadvallardan iborat bo'lgan ma'lumotlar bazalari uchun bu katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar ma'lumot bazangiz ushbu topshiriqda yaratilayotganiga o'xshab bittagina jadvaldan iborat bo'lsa, bu ish unchalik ahamiyatga ega emas, shuning uchun ushbu holda **Нет (Yo'q)** tugmachasini bosing.

Jadvalning *konstruktor rejimidagi* darchasining pastki qismidagi **Общие (Umumiy)** tugmachasi bosilganida kiritilgan maydonning bir qancha ko'rsatgichlari ekranda namoyon bo'ladi. Ularning barchasini o'zgartirish mumkin. Lekin bizning maslahatimizga rioya qilsangiz **Размер polya (Maydon kattaligi)** punktinigina o'zgartiring, boshqalarini esa hozircha o'zgartirishsiz qoldiring (ularning nima vazifalar uchun xizmat qilishini keyinchalik ko'rib chikamiz). Masalan **ACCESS** ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi matnli ma'lumotlar uchun 50 simvolli kattalikni taklif qiladi. Lekin **Фамилия, Имя, Отасining ismi** va shu kabi maydonlar kattaligi 15 simvoldan katta bo'lishi mumkin emas. Agarda ularning bundan kattasi uchrab qolsa, keyinchalik osonlik bilan o'zgartirish mumkin. Sonli maydon turlari uchun **ACCESS** dasturi **Длинное слово (Uzun butun son)** turini taklif qiladi. Lekin agarda Sizning sonli ma'lumotlaringiz butun sonlar (-32768 dan +32767 gacha) bo'lsa **Слово (Butun)** imkoniyatini tanlash kerak, agar ular kasr sonlar bo'lsa, u holda **С плавающей точкой (Suzuvchi nuktali sonlar – Kasr sonlar)** imkoniyatini tanlash kerak bo'ladi. Kerakli imkoniyatni yoki ko'rsatgichni tanlash uchun sichqoncha ko'rsatgichini maydonga keltirgan holda uni bir marta bosish kerak bo'ladi. Keyin esa hosil bo'lgan pastga yo'nalgan strelka shaklidagi ruyxatni ochish tugmachasini bosilsa, tegishli ruyxat

hosil bo'лади va Siz undan kerakli imkoniyatni tanlab olishingiz mumkin. Bu ishlarni bajarish natijasida yaratayotgan jadvalingiz ixcham va oddiy xolatga keltiriladi, ma'lumotlar bazasining xajmi esa ancha-muncha miqdorga kamayadi.

2 - T O P S H I R I Q

Ma'lumotlar bazasini to'ldirish.

Mansabi deb nomlangan maydon ma'lumotlariga chegaralanishlar o'rnating. YA'ni, unga faqat **Professor**, **Dotsent** va **Assistent** degan nomlargina kiritila olinsin.

1. **Mansabi** deb nomlangan maydonga noto'g'ri ma'lumotlar kiritilgan takdirda ekranda xatolik yuz bergani to'g'risidagi ma'lumot chiqishini ta'minlang.

2. **Mansabi** deb nomlangan maydon uchun o'z-o'zidan avtomatik ravishda **Dotsent** nomi kiritilishini amalga oshiring.

3. **O'qituvchi kodi** maydoniga kiritiladigan kattaliklar uchun chegaralanish kiriting – bu kattaliklar (sonlar) qaytarilmasligini ta'minlang.

4. Jadvalni quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldiring va bunda **Mansabi** deb nomlangan maydonga noto'g'ri ma'lumotlar kiritilgan takdirda ekranda xatolik yuz bergani to'g'risidagi ma'lumot chiqishini tekshiring:

| Kod i | Familiyas i | Ismi | Otasining ismi | Tug'ilga n sanasi | Mansab i | O'qadigan fani | Telefon i | Maosh i |
|----------|----------------|------------|-------------------|----------------------|---------------|-------------------|--------------|------------|
| 1 | Alimov | Kari m | Obidovich | 10.11.42 | Professo r | Informatik a | 117419 7 | 42000s |
| 2 | Nodirov | Ali | Umidovich | 02.04.64 | Dotsent | Informatik a | 116142 6 | 38000s |
| 3 | Malikov | Soli | Voxidovic h | 05.05.51 | Professo r | Matematik a | 134412 5 | 44000s |
| 4 | Sunnatov | Bolta | Sultonovic h | 06.07.74 | Dotsent | Informatik a | 135342 8 | 36000s |
| 5 | Tojiev | Xusa n | Axrorovich | 01.02.67 | Dotsent | Matematik a | 112149 8 | 34000s |
| 6 | Malikov | Sulto n | Valievich | 20.11.72 | Assistent | Informatik a | 154085 6 | 30000s |
| 7 | Nodirov | Olim | Rafikovich | 12.08.70 | Assistent | Moliya | 144567 2 | 28000s |

6. Jadvalning har bir maydoni kengligini kiritilgan ma'lumotlar kattaligiga mos ravishda o'zgarishini ta'minlang.

7. Jadvaldan **Nodirov** familiyasi o'qituvchini kidirishni amalga oshiring.

8. Ma'lumotlarni almashtirishni amalga oshiring: Assistent **Malikovning** maoshini 30000 soʻmdan 32000 soʻmga oʻzgartiring.

9. **Tugʻilgan sanasi** maydoni boʻyicha kamayish tartibida sortirovkani (tartiblashtirishni) amalga oshiring.

10. **Mansabi** va **oʻqadigan fani** maydonlari boʻyicha ma'lumotlar filtratsiyasini amalga oshiring.

11. Hosil qilingan jadvalni chop qiling va uning qogʻozda qanday koʻrinishini bilib oling.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. **Jadvalga kiritilayotgan turli xil ma'lumotlarga chegaralanishlar qoʻyish uchun:**

✓ Agarda Siz ma'lumotlar bazasining asosiy oynasida turgan boʻlsangiz, hosil qilinayotgan jadval uchun **Konstruktor** rejimiga kiring. Aks holda, agar hosil qilinayotgan ma'lumot bazasining darchasida turgan boʻlsangiz **Tablitsa** imkoniyatini tanlang va **Konstruktor** tugmachasini bosing. Agarda Siz **Tablitsa** rejimida turgan boʻlsangiz, u holda uskunalar panelining **Konstruktor** tugmachasini bosing yoki **Vid (Koʻrinish)** menyusidan **Konstruktor** imkoniyatini tanlang;

✓ Darchaning yukori qismidagi **Mansab** maydonida sichqoncha bilan bosing;

✓ Darchaning pastki qismidagi ruyxatdan **Uslovie po znacheniyu (SHartli kiymat)** qatorida sichqoncha koʻrsatgichi bilan bosing;

✓ Unda hosil boʻlgan tegishli tugmachani bosib, **Mansab** maydoni kabul qilishi mumkin boʻlgan ma'lumotlarni aniqlash shartlarini tanlashga imkon beradigan darchani oching;

✓ Hosil boʻlgan darchada **Professor** soʻzini yozing va undan soʻng **OR** (mantiqiy “**yoki**” (“**ili**”) buyrugʻi) tugmachasini bosing. Keyin **Dotsent** soʻzini yozib, yana oʻsha tugmachani bosing va undan soʻng **Assistent** soʻzini yozing va soʻngra **OK** tugmachasini bosing. SHunday qilib biz **Mansab** maydoniga faqatgina yukorida koʻrsatilgan soʻzlarga kiritilishi mumkin boʻlgan shartlarni kiritib boʻldik.

2. **Soobshenie ob oshibke (Xatolar haqidagi ma'lumot)** qatoriga quyidagi soʻzni kiriting: “**Ma'lumotlarni toʻgʻri kiriting, chunki oʻqituvchilar uchun bunday mansab yoʻq**”;

3. **Znachenie po umolchaniyu (Avtomatik ravishda dastur tomonidan kiritiladigan kattalik)** nomli qatorda **Dotsent** soʻzini kiriting;

4. **Kod (oʻqituvchi kodi)** maydoniga kiritiladigan ma'lumotlarga chegaralanish oʻrnatish uchun ularning qaytarilmasligini va keyinchalik ularni oʻzgartirish mumkin boʻlishiga ahamiyat berish kerak. SHuning uchun ham ushbu maydon uchun ma'lumotlarning **Schetnik** turini koʻllab boʻlmaydi, chunki bunda ma'lumotlar xech qachon qaytarilmaydilar. Ikkinchi shartni bajarish uchun, yaʼni oʻqituvchilar kodlarini oʻzgartirishga imkon yaratish uchun **Kod** maydonida

ma'lumotlarning **CHislovoy** turi tanlanishi kerak bo'ladi. Ularning qaytarilmasligini ta'minlash uchun esa quyidagi ishlarni bajarish kerak bo'ladi:

✓ **Indeksirovannoe pole (Indekslashtirilgan maydon)** ko'rsatgichi qatorida sichqoncha ko'rsatgichini o'rnatib, uni bosing. Indeks – **Access** ning jadvaldagi ma'lumotlarni kidirish va saralash uchun ishlatiladigan bir muxim vositasidir. Jadvalning kalit maydoni (boshlang'ich maydon kaliti) avtomatik ravishda indekslashtiriladi. **MEMO, OLE** ob'ektlari maydonlari va **Giperilova** turidagi maydonlarda indekslar hosil qilishga yo'l ko'yilmaydi. **Indekslashtirilgan maydon** xususiyati bir maydon uchun hosil qilingan indeksni aniklaydi. Indekslashtirilgan maydon unikal (qaytarilmaydigan) yoki qaytariladigan kattaliklarni o'z ichiga olishi mumkin. Istalgan mikkordagi indekslarni hosil qilishga imkon beriladi;

✓ Hosil bo'lgan ruyxatdan **Da** deb nomlangan punktni (imkoniyatni) tanlab oling. Bu ishni bajarish "*Mos kelishlarga yo'l ko'yilmaydi*" (*Sovpadeniya ne dopuskayutsya*) ma'nosini anglatadi va shu ishning dastur tomonidan amalga oshirilishiga olib keladi;

✓ Endi tegishli tugmachani bosish yoki **Vid (Ko'rinish)** menyusidan **Rejim tablitsy (Jadval xolati)** imkoniyatini tanlash orkali **Tablitsa (Jadval)** rejimiga o'ting. Bunda "*Hosil bo'lgan jadval saqlansinmi?*" degan savolga javoban **Da (Ha)** tugmachasini bosing;

5. YUqorida keltirilgan jadvaldan foydalangan holda barcha ma'lumotlarni kiriting. So'ngra **Mansab** maydoniga **Laborant** so'zini kiritib ko'ring. Ekranda "*Ma'lumotlarni to'g'ri kiriting, chunki o'qituvchilar uchun bunday mansab yo'q*" degan ma'lumot hosil bo'ladi. Endi to'g'ri so'zni kiritishingiz mumkin;

6. Jadvalning har bir maydoni kengligini kiritilgan ma'lumotlar kattaligiga mos ravishda o'zgartirishni ta'minlash uchun quyidagi ishlarni bajaring:

✓ **Kod** maydonining istalgan qatorida sichqoncha ko'rsatgichi bilan bosing;

✓ **Format** menyusidan **SHirina stolbsa (Ustun kengligi)** buyrug'ini tanlang;

✓ Hosil bo'lgan darchada **Po shirine dannix (Ma'lumotlar kattaligiga mos ravishda)** tugmachasini bosing va natijada maydon kengligining avtomatik ravishda kiritilayotgan ma'lumotlar kattaligiga mos holda o'zgarilishi amalga oshadi;

✓ Boshqa maydonlar bilan ham ushbu amallarni bajarib chiking.

7. Jadvaldan **Nodirov** familiyasi o'qituvchini kidirishni amalga oshirish uchun quyidagi amallarni bajarish zarur bo'ladi:

✓ Kursorni **Familiya** maydonining birinchi qatoriga olib keling;

✓ **Pravka (Tuzatish)** menyusidan **Nayti (Topilsin)** buyrug'ini tanlang;

✓ Hosil bo'lgan muloqot darchasidagi **Obrazets (Namuna)** deb nomlangan qatorda **Nodirov** familiasini kiriting;

✓ **Prosmotr (Ko‘rib chiqish)** nomli qatorda **VSE (Xammasi)** degan so‘z bo‘lishi kerak. Buning ma‘nosi jadvaldagi “*Barcha yozuvlar bo‘yicha kidirilsin*” degani bo‘ladi;

✓ **Sovpadenie (Mos kelishlik)** qatoridagi ruyxatdan “*S lyuboy chastyu polya*” (*Maydonning istalgan qismi bilan*) imkoniyatini tanlang;

✓ **Tolko v tekushem pole (Faqat joriy maydonda)** deb nomlangan qatorda belgi o‘rnating (unda “*galochka*” belgisi turishi kerak);

✓ **Nayti (Topilsin)** tugmachasini bosing. Bu amal natijasida kursor ikkinchi yozuvga kelib, **Nodirov** familiyasini ajratib ko‘rsatadi;

✓ **Nayti dalee (YAna topilsin)** tugmachasi turtilsa, kursor ettinchi yozuvga o‘tadi va yana **Nodirov** familiyasini ajratib ko‘rsatadi;

✓ qidiruv rejimidan chiqish uchun **Zakryt (YOilsin)** tugmachasini bosiladi.

8. Assistent **Malikov** ning maoshini 30000 so‘mdan 32000 so‘mga o‘zgartirish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

✓ Kursorni **Maosh** maydonining birinchi qatoriga olib keling;

✓ **Pravka (Tuzatish)** menyusining **Zamenit (Almashtirilsin)** buyrug‘ini tanlang;

✓ Hosil bo‘lgan muloqot darchasining **Obrazets (Namuna)** qatorida 30000s ni kiriting;

✓ **Zamenit na (. . . ga almashtirilsin)** qatoriga 32000s ni kiriting. Boshqa imkoniyatlarga ham e‘tibor bering, chunki Siz qidiruvni ushbu maydonning barcha yozuvlari bo‘yicha amalga oshirishingiz kerak bo‘ladi;

✓ **Nayti dalee (YAna topilsin)** tugmachasini bossangiz, kursor uchinchi yozuvga kelib to‘xtaydi. Lekin bu yozuvda *professor* kayd qilingan, Siz uchun esa xuddi shu familiyali *assistent* kerak. SHuning uchun qidiruvni davom ettirishingiz kerak bo‘ladi. SHuning uchun yana bir marta.

✓ **Nayti dalee (YAna topilsin)** tugmachasini bosasiz. Endi kursor oltinchi yozuvga kelib to‘xtaydi. Bu esa Siz uchun kerak bo‘lgan *assistent Malikov* ga tegishli yozuvning xuddi o‘zi;

✓ Endi **Zamenit (Almashtirilsin)** tugmachasini bosishingiz kerak bo‘ladi. Buning natijasida ma‘lumotlar o‘zgaradi, ya‘ni *assistent Malikov* ning maoshi 30000 so‘mdan 32000 so‘mga o‘zgaradi. Agarda barcha ma‘lumotlarni o‘zgartirish zarur bo‘lsa, **Zamenit vse (Xammasi almashtirilsin)** tugmachasidan foydalanish kerak bo‘ladi;

✓ **Zakryt (YOilsin)** tugmachasini bosing.

9. **Tug‘ilgan sanasi** maydoni bo‘yicha kamayish tartibida sortirovkani (tartiblashtirishni) amalga oshirish uchun:

✓ **Tug‘ilgan sanasi** maydonining istalgan yozuviga sichqoncha ko‘rsatgichini keltirib, uni bir marta bosing;

✓ Uskunalar panelidagi **A-YA** xarflari orkali belgilangan tugmachani bosing yoki **Zapisi, Sortirovka, Sortirovka po ubyvaniyu** buyruqlarini ketma-

ket bajarang. Bu amallar natijasida **Tug'ilgan sanasi** maydoni bo'yicha kamayish tartibida sortirovka (tartiblashtirish) amalga oshiriladi.

10. **Mansabi** va **o'qadigan fani** maydonlari bo'yicha ma'lumotlar filtratsiyasini amalga oshirish uchun quyidagi amallarni bajarang:

✓ **Mansab** maydonidagi **Dotsent** yozuvini belgilang;

✓ Uskunalar panelidagi filtratsiya tugmachasini bosang yoki **Zapisi, Filtr, Filtr po vydelennomu** buyruqlarini ketma-ket tartibda bajarang. Bu ishlar natijasida jadvalda faqat dotsentlar haqidagi ma'lumotlarga koladi;

✓ Endi **o'qadigan fani** maydonida **Informatika** yozuvini bosang;

✓ Uskunalar panelidagi filtratsiya tugmachasini bosang yoki **Zapisi, Filtr, Filtr po vydelennomu** buyruqlarini ketma-ket tartibda bajarang. Bu ishlar natijasida jadvalda faqat informatika kafedrasining dotsentlari haqidagi ma'lumotlarga koladi xolos;

✓ Filtratsiyani man qilish uchun yana filtratsiya tugmachasini bosang yoki **Zapisi, Udalit filtr** buyruqlarini ketma-ket tartibda bajarang.

✓ Natijada jadvalda barcha boshlang'ich ma'lumotlar yana paydo bo'ladi.

11. Hosil qilingan jadvalni ko'rib chiqish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak bo'ladi:

✓ Uskunalar panelidagi **Predvaritalnyy prosmotr (Ko'rib chiqish)** tugmachasini bosang yoki **Fayl** menyusidagi **Predvaritelnyy prosmotr** buyrug'ini tanlang. Bu ish natijasida jadval ekranda namoyon bo'ladi;

✓ Ko'rish oynasini yoping;

✓ Agarda Siz maydonlarni yoki jadvalning qog'ozdagi joylashuvini o'zgartirmokchi bo'lsangiz, **Fayl** menyusidagi **Parametry stranitsy (Sahifa ko'rsatgichlari)** imkoniyatini tanlashingiz kerak bo'ladi. Bunda hosil bo'lgan muloqot darchasidan foydalangan holda kerakli ko'rsatgichlarni osongina o'zgartirishingiz mumkin bo'ladi;

✓ Agarda printer bo'lsa, jadvalni qog'ozga chop qilib olishingiz ham mumkin.

3- T O P S H I R I Q

Ma'lumotlarni formalar yordamida kiritish va ularni ko'rib chiqish

1. **Forma masteri (Mastera form)** yordamida **o'qituvchilar tarkibi** nomli forma hosil qiling - formaning turi *bir ustunli* bo'lsin (*forma v odin stolbets*);

2. Forma rejimida turgan xolatda dotsent **Nodirov** haqidagi ma'lumotni toping;

3. Assistent **Malikovning** maoshini 30000 so'mdan 32000 so'mga o'zgartiring;

4. **Tug'ilgan sanasi** maydonidagi ma'lumotlarni kamayish tartibida saralang;

5. **Mansab** maydonidagi ma'lumotlarni filtratsiya qiling;

6. **O'qadigan fani** maydoni nomini **Fanlar** degan nomga o'zgartiring;
7. **Formani** uning qog'oz varagida qanday ko'rinishi nuktai-nazaridan o'rganib chiking.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. **O'qituvchilar tarkibi** nomli forma hosil qilish uchun quyidagi ishlarni bajarish lozim:

- ✓ Ma'lumotlar bazasi oynasida **Formy** imkoniyatini tanlab uni oching;
- ✓ **Sozdat (YAratilsin)** tugmachasini bosing;
- ✓ Hosil bo'lgan muloqot darchasida sichqoncha ko'rsatgichi yordamida

Master form (Formalar masteri) punktini tanlang;

✓ Darchaning pastki qismidagi ruyxat hosil kiladigan strelka shaklidagi tugmachani bosing;

✓ Hosil bo'lgan ruyxatdan **o'qituvchilar** jadvalini tanlang;

✓ **OK** tugmachasini bosing;

✓ Bu ishlar natijasida hosil bo'ladigan muloqot darchasidan formada bo'lishi kerak bo'lgan barcha maydonlarni tanlang. Ushbu misolda barcha maydonlar bo'lishi kerakligi uchun ularning xammasini tanlash kerak bo'ladi;

✓ **Dalee (Keyingi)** tugmachasini bosing;

✓ Hosil bo'lgan muloqot darchasida **Forma v odin stolbets (Bir ustunli forma)** tanlangan, shuning uchun yana **Dalee (Keyingi)** tugmachasini bosasiz;

✓ Hosil bo'lgan yangi darchadan formaning stilini tanlab olamiz. Buning uchun bir qancha stillardan birini sichqoncha yoki klaviatura yordamida tanlab olamiz va undan so'ng yana **Dalee (Keyingi)** tugmachasini bosamiz;

✓ Navbatdagi darchada formaning **o'qituvchilar tarkibi** degan nomini klaviatura orkali teramiz. Darchadagi boshqa ko'rsatgichlarni o'zgarishsiz koldiramiz;

✓ Endi **Gotovo (Tayyor)** tugmachasini turtamiz. Bunda bir ustundan iborat forma hosil bo'ladi. CHapdagi ustun maydonlar nomi va o'ngdagi ustun birinchi yozuvga tegishli ma'lumotlar bo'ladi. Darchaning pastki qismida joylashgan strelkachali tugmachalar orkali yozuvlar bo'ylab bema'lol xarakterlanish mumkin (bitta yozuv yukoriga yoki pastga, yozuvlar boshiga yoki oxiriga).

2. Dotsent **Nodirov** haqidagi ma'lumotni topish uchun quyidagi ishlar ketma-ketligini bajaring:

✓ Kursorni **Familiya** maydonining birinchi qatoriga olib keling;

✓ **Pravka (Tuzatish)** menyusidagi **Nayti (Topilsin)** buyrug'ini bajaring;

✓ Hosil bo'lgan muloqot darchasidan foydalangan holda **Obrazets (Namuna)** qatorida **Nodirov** familiyasini kiriting;

✓ **Prosmotr (Ko'rib chiqish)** ko'rsatgichi qatorida **VSE** degan so'z bo'lishi kerak (ya'ni *barcha yozuvlar ko'rib chikilsin* degan ma'noda);

✓ **Sovpadenie (Mos tushish)** ko'rsatgichi qatoridagi ruyxatdan **S lyuboy chastyu polya (Maydonning istalgan qismi bilan)** degan ko'rsatgichni tanlab olish kerak bo'ladi;

✓ **Tolko v tekushem pole (Faqatgina joriy maydonda)** nomli ko'rsatgich maydonida belgi ko'ying ("galochka" belgisi ko'yiladi);

✓ **Nayti (Topilsin)** tugmachasini bosing. Natijada kursor ikkinchi yozuvga o'tadi va **Nodirov** so'zini ajratib ko'rsatadi;

✓ Endi **Nayti dalee** tugmachasini bossak, kursor ettinchi yozuvga o'tadi va yana **Nodirov** so'zini ajratib ko'rsatadi;

✓ **Zakryt (YOpilsin)** tugmachasini bosib, qidiruv rejimidan chiqishni amalga oshiramiz.

3. Assistent **Malikovning** maoshini 30000 so'mdan 32000 so'mga o'zgartirish uchun quyidagi ishlarni bajarishimiz kerak bo'ladi:

✓ Kursorni **Maosh** maydonining birinchi qatoriga keltiring;

✓ **Pravka (Tuzatish)** menyusidan **Zamenit (Almashtirilsin)** buyrug'ini tanlang;

✓ Hosil bo'lgan muloqot darchasidagi **Obrazets (Namuna)** qatorida 30000 so'mni kiriting;

✓ **Zamenit na (. . . ga almashtirish)** qatorida 32000 so'mni kiriting. Boshqa imkoniyatlarga ham diqqatingizni qarating, chunki Sizga ushbu maydonning barcha yozuvlari bo'yicha qidiruv tashkil qilish kerak bo'ladi;

✓ **Nayti dalee** tugmachasini bosing. Bunda kursor uchinchi yozuvga o'tadi, lekin unda ma'lumotlarni o'zgartirish shart emas (chunki bu yozuv *dotsent Malikov* ga tegishli, bizga esa *assistent Malikov* ga tegishli malumotlar kerak), shuning uchun yana **Nayti dalee** tugmachasini bosamiz va u bizni kerakli bo'lgan oltinchi yozuvga olib keladi;

✓ Endi **Zamenit (Almashtirilsin)** tugmachasini bossak, ma'lumotlar o'zgartirilishi amalga oshadi;

✓ Ishni tugallash uchun **Zakryt (YOpilsin)** tugmachasini bosamiz.

4. **Tug'ilgan sanasi** maydonidagi ma'lumotlarni kamayish tartibida saralash uchun kuyida keltirilgan ishlarni bajarish kerak bo'ladi:

✓ **Tug'ilgan sanasi** maydonidagi istalgan yozuvni bosing;

✓ Uskunalar panelidagi **A-YA** rasmi tugmachani bosing yoki **Zapisi, Sortirovka, Sortirovka po ubyvaniyu** buyruqlarini ketma-ket tartibda bajaring. Natijada jadvaldagi barcha yozuvlar **Tug'ilgan sanasi** maydonidagi kattaliklar asosida kamayish tartibida joylashtirilib chikiladi;

5. **Mansab** maydonidagi ma'lumotlarni filtratsiya qilish uchun:

✓ **Mansab** maydonidagi **Dotsent** yozuvini tanlab, uni bosing;

✓ Uskunalar panelidagi filtratsiya tugmachasini bosing yoki ketma-ket ravishda **Zapisi, Filtr, Filtr po vydelennomu** buyruqlarini bajaring. Natijada formada faqatgina *dotsentlar* haqidagi ma'lumotlarga koladi;

✓ **o'qadigan fani** maydonidagi **Informatika** yozuvini tanlab uni bosing;

✓ Uskunalar panelidagi filtratsiya tugmachasini bosib yoki ketma-ket ravishda **Zapisi, Filtr, Filtr po vyidelennomu** buyruqlarini bajaring. Natijada formada *informatika kafedrasidotsentlari* haqidagi ma'lumotlarga koladi xolos:

✓ Filtrni ma'n qilish uchun uskunalar panelidagi tegishli tugmachani bosib yoki **Zapisi, Udalit filtr** buyruqlarini bajaring. Bu amal natijasida jadvalda barcha ma'lumotlar yana paydo bo'ladi.

6. **o'qadigan fani** maydoni nomini **Fanlar** degan nomga o'zgartirish uchun quyidagi ishlar ketma-ketligini bajarish talab qilinadi:

✓ Uskunalar panelidagi tegishli tugmachani bosgan holda yoki **Vid** menyusidan **Konstruktor** imkoniyatini tanlab **Konstruktor rejimiga** o'ting;

✓ **o'qadigan fani** maydonida sichqonchani o'ng tugmachasini bosib (u maydon nomining chap tomonida joylashgan). Hosil bo'lgan menyudan **Svoystva (Xususiyatlar)** punktini tanlab olamiz. Ekranida **o'qadigan fani** maydonining xususiyatlarini aks ettirgan darcha hosil bo'ladi;

✓ **Podpis** deb nomlangan qatorni turtamiz (u erda **o'qadigan fani** degan so'z turibdi);

✓ **o'qadigan fani** degan so'zni o'chirib, **Fanlar** so'zini kiriting;

✓ **Natijani** ko'rib chiqish uchun **Vid** menyusining **Rejim formy** buyrug'idan foydalangan holda forma rejimiga kiring.

7. **Formani ko'rib chiqish uchun quyidagilarni bajarasiz:**

✓ Uskunalar panelidagi tegishli tugmachadan foydalanib yoki **Forma, Predvaritelnyy prosmotr** buyruqlarini bajaring. Bunda Siz formani xuddi qog'oz varagida ko'rgandek ko'rishingiz mumkin;

✓ Ko'rish darchasini yoping.

Bir sahifada formaning bir qancha varaklari joylashganiga xayron bo'lmang. Formalar chop kilinmaydi, chunki uning asosiy maksadi ma'lumotlarni pechatlash emas, balki ushbu jadvalli ma'lumotlarni kulay ravishda kiritish va ko'rib chiqishdir.

4 - T O P S H I R I Q

Ma'lumotlar bazasidan so'rovlar hosil qilish

1. **o'qituvchilar** jadvali asosida tanlov uchun oddiy so'rov hosil qiling. Unda o'qituvchilarning familiyalari, ismlari, otalarining ismlari va mansablari aks ettirilsin;

2. So'rov natijalarini mansablar bo'yicha tartiblashtiring;

3. So'rovni saqlang;

4. o'qituvchilarning familiyalari, ismlari, otalarining ismlari va ular dars beradigan fanlarni o'zida aks ettiradigan ko'rsatgichli so'rov hosil qiling. Ko'rsatgich sifatida o'qituvchining familiyasini ishlatib va ushbu so'rovni **Malikov** familiyasi o'qituvchi uchun amalga oshiring;

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. **Oddiy so‘rov hosil qilish uchun quyidagi amallarni bajaring:**
 - ✓ Ma’lumotlar bazasi oynasida **Zaprosy (So‘rovlar)** tugmachasini bosib, tegishli muloqot darchasini oching;
 - ✓ Ushbu muloqot darchasida **Sozdat (Hosil qilinsin)** tugmachasini bosing;
 - ✓ **Новый запрос (YAngi so‘rov)** oynasidan **Простой запрос (Oddiy so‘rov)** punktini tanlab, **OK** tugmachasini bosing;
 - ✓ Navbatdagi hosil bo‘lgan darchadagi **Таблицы/Запросы (Jadvallar/So‘rovlar)** qatoridan **o‘qituvchilar** jadvalini tanlang;
 - ✓ **Доступные поля** darchasida **Familiya** ko‘rsatgichini ajrating;
 - ✓ > tasvirli tugmachani bossangiz, **Familiya** so‘zi **Выбранные поля** darchasiga o‘tadi;
 - ✓ Xuddi shunday tartibda **Ismi, Otasining ismi** va **Mansabi** maydonlarini **Выбранные поля** darchasiga o‘tkazing;
 - ✓ Endi **Dalee** tugmachasini bosing;
 - ✓ **Zadayte imya zaprosa (So‘rov nomini kiriting)** deb nomlangan ko‘rsatgich qatorida **“o‘qituvchilarning mansablari”** degan yangi nom kiriting;
 - ✓ **Gotovo (Tayyor)** tugmachasini bosing. Ushbu amallar natijasida ekranda so‘rov natijalari aks etgan jadval hosil bo‘ladi.

2. **Ma’lumotlarni tartiblashtirish uchun quyidagi ishlar ketma-ketligini bajarishimiz lozim bo‘ladi:**

- ✓ **Mansab** maydonining istalgan qatoriga sichqoncha ko‘rsatgichini keltirib, uni bir marta bosing;
- ✓ Ma’lumotlarni kamayish tartibida saralash uchun **A-YA** tasvirli tugmachani bosing yoki ketma-ket tartibda **Zapisi, Sortirovka, Sortirovka po ubyvaniyu** buyruqlarini bajaring.

3. **So‘rovni saqlash uchun quyidagilarni bajaring:**

- ✓ Uskunalar panelidagi disket surati tushirilgan saqlash tugmachasini bosing yoki **Fayl** menyusidagi **Soxranit** tugmachasini bosing;
- ✓ So‘rov oynasini yoping.

4. **Ko‘rsatgichli so‘rov hosil qilish uchun quyidagi amallarni bajaring:**

- ✓ **o‘qituvchilar** jadvalining **Familiya, Ismi, Otasining ismi, o‘qadigan fani** maydonlari uchun tanlov so‘rovini hosil qiling. Bu ishni ushbu topshiriqning birinchi punktida bajarilgan tartibda bajarishingiz kerak bo‘ladi;
- ✓ So‘rovga **ukitiladigan fanlar** degan nom bering;
- ✓ Endi **Gotovo (Tayyor)** tugmachasi bosilsa, ekranda so‘rov natijalarini o‘z ichiga olgan jadval hosil bo‘ladi;
- ✓ Tegishli tugmachani bosib yoki **Vid** menyusidagi **Konstruktor** buyrug‘idan foydalangan holda **Konstruktor** rejimiga o‘ting;

✓ **Usloviya otbora (Tanlov shartlari)** qatorida **Familiya** maydoni uchun qavslar orasiga olgan holda quyidagi gapni kiriting: [*o'qituvchining familiyasini kiriting (Vvedite familiyu prepodavatelya)*];

✓ Uskunalar panelidagi tegishli tugmachani bosib yoki **Zapros, Zapusk** buyruqlarini ishlatgan holda so'rovni bajarang;

✓ Hosil bo'lgan darchada **Malikov** familiyasini kiriting va **OK** tugmachasini bosang. Ekranda **Malikov** ismli o'qituvchining ma'lumotlarini, ya'ni uning ismi-familiyasi va o'kitadigan fanini o'z ichiga olgan jadval hosil bo'ladi;

✓ So'rovni saqlang;

✓ So'rov oynasini yoping.

5- TOPSHIRIQ

O'qituvchilar jadvali asosida mansablar bo'yicha guruxlantirilgan hisobot tuzing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

Hisobot hosil qilish uchun Sizdan quyidagi ishlar ketma-ketligini bajarish talab qilinadi:

✓ **Otchetы (Hisobotlar)** tugmachasini bosib, tegishli darchani oching va undan so'ng ushbu darchadagi **Sozdat (Hosil qilinsin)** tugmachasini bosang;

✓ Paydo bo'lgan muloqot darchasidan **Master otchetov (Hisobotlar ustasi)** punktini tanlang;

✓ Bu darchaning pastki qismidagi strelkali belgichani bosib, ruyxatni oching;

✓ Hosil bo'lgan ruyxatdan *o'qituvchilar* jadvalini tanlang va **OK** tugmachasini bosang;

✓ Hosil bo'lgan darchadan formada ko'rinishi kerak bo'lgan maydonlarni tanlang va har bir tanlovdan so'ng > tugmachasini bosang. Ushbu misolda hisobotda jadvalning barcha maydonlari bo'lishligi kerakligi uchun >> tasvirli tugmachani bosang va so'ngra **Dalee** tugmachasini bosang;

✓ Ekranda paydo bo'lgan darchada maydonlar ruyxatini ko'rasiz. **Mansab** maydonini ajratib ko'ying;

✓ Endi > tasvirli tugmachani bosang. Ushbu amal oqibatida Siz mansab bo'yicha guruxlashtirish kerakligini ko'rsatdingiz;

✓ Keyin **Dalee** tugmachasini bosang;

✓ Hosil bo'lgan darchaning ko'rsatgichlarini o'zgartirishsiz koldiramiz va so'ngra **Dalee** tugmachasini bosamiz;

✓ Hosil bo'lgan navbatdagi darchadan hisobotning *stilini* tanlab olamiz va so'ng **Dalee** tugmachasini bosamiz;

✓ Ushbu yangi darchada hisobot nomini **o'qituvchilar** deb kiritamiz;

✓ Endi **Gotovo (Tayyor)** nomli tugmachani turtamiz. Bunda ekranda tayyor hisobot namoyon bo'ladi;

✓ Hisobotni ko'rib chikkandan so'ng, uni yopib ko'ying.

6 - TOPSHIRIQ

Ma'lumotlar bazasining informatsion va mantiqiy modellarini tuzish

1. Relyasion ma'lumotlar bazasining informatsion-mantiqiy modelini ishlab chiking;

2. Relyasion ma'lumotlar bazasining mantiqiy modelini ishlab chiking.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Relyasion ma'lumotlar bazasining informatsion-mantiqiy modelini ishlab chiqishdan oldin uning qanday informatsion ob'ektlardan iborat bo'lishi kerakligini ko'rib chikamiz. Ushbu holda uch asosiy ob'ektni ajratib ko'rsatishimiz mumkin – **Talabalar**, **Fanlar** va **o'qituvchilar**. Ushbu informatsion ob'ektlarning rekvizitlarini ob'ekt nomi (rekvizitlar ruyxati) ko'rinishida quyidagicha ifodalaymiz:

Talabalar (*Talaba kodi, Familiyasi, Ismi, Otasining ismi, Gurux nomeri, Tug'ilgan sanasi, Stipendiyasi, Baholari*);

Fanlar (*Fan kodi, Fan nomi*);

O'qituvchilar (*o'qituvchi kodi, Familiyasi, Ismi, Otasining ismi, Tug'ilgan sanasi, Telefoni, Maoshi*).

Talabalar va **Fanlar** informatsion ob'ektlari orasidagi aloqani ko'rib chikamiz. Talabalar bir qancha fanlarni o'rganadilar, har bir fan ham ko'pchilik talabalar tomonidan o'rganiladi. Demak, bu ob'ektlar orasidagi aloqa ko'plikka-ko'plik turidagi aloqaga mansub ekan (**M:N**) va buni quyidagi chizma vositasida ko'rsatishimiz mumkin:

| M:N | 1:M |
|----------------------------|--------------------------------|
| Talabalar Fanlar | o'qituvchilar Fanlar |

Fanlar va **o'qituvchilar** informatsion ob'ektlari orasidagi aloqa esa birdan-ko'pga turiga mansub, chunki har bir o'qituvchi **Fanlar** ob'ektida keltirilgan bitta fandan dars beradi, lekin har bir fan bir qancha o'qituvchilar tomonidan o'kitilishi mumkin. SHuning uchun ushbu holda aloqa **1:M** turiga mansub bo'ladi.

Ko'plikka-ko'plik turidagi aloqalar (**M:N**) ma'lumotlar bazasini boshqarishni murakkablashtirib yuboradi, shuning uchun ko'pchilik xollarda bunday turga mansub aloqalarni ishlatmaydigan relyasion modellarni ko'llagan ma'kul bo'ladi. Ma'lumotlarning butunligini nazorat qilish, ularning yangilanishini ta'minlab berish va keraksiz ma'lumotlarni yo'kotish imkoniyatlarini yaratish uchun ulanilishi kerak bo'lgan **Fanlar** va **o'qituvchilar** informatsion ob'ektlarning kalit rekvizitlaridan tashkil topgan qo'shimcha aloqa ob'ektini yaratish kerak bo'ladi. Ko'rilayotgan misolda **Fanlar** va **o'qituvchilar** informatsion ob'ektlari orasidagi aloqani amalga oshiradigan ushbu yangi ob'ekt sifatida **Baholar** deb nomlangan ob'ektni ishlatishimiz mumkin. Uning rekvizitlari sifatida *Talaba kodi, Fan kodi* va *Baho* ni ishlatishimiz mumkin. YA'ni, **Baholar** (*Talaba kodi, Fan kodi, Baho*).

Har bir talaba bir qancha fanlar bo'yicha baho olishi mumkin, shuning uchun ham **Talabalar** va **Baholar** ob'ektlari orasidagi bog'lanish birga-ko'plik (1:M) turida bo'ladi. Har bir fan bo'yicha baho esa faqat bitta bo'ladi, shuning uchun ham **Fanlar** va **Baholar** ob'ektlari orasidagi bog'lanish ham birga-ko'plik (1:M) turida bo'ladi. Demak, ushbu taxlil natijasida ma'lumotlar bazasining quyidagi informatsion-mantiqiy modelini olamiz:

1:M

Talabalar

Fanlar

O'qituvchilar

Baholar

1:M

1:M

Relyasion ma'lumotlar bazasida informatsion ob'ektlar sifatida jadvallar ko'rinishidagi ob'ektlar va ular orasidagi munosabatlar ishlatiladi. Jadvallar esa umumiy maydonlar vositasida bir-birlari bilan o'zaro bog'lanadilar. Ikkala jadvaldagi umumiy maydonlarning formatlari va nomlari bir xil bo'lishi talab qilinadi. Ma'lumotlarning bog'likligini ta'minlab berish uchun jadvallarga qanday umumiy maydonlar kiritilishi kerakligini ko'rib chikamiz. **Talabalar** va **Baholar** jadvallarida bunday maydon **Talaba kodi** bo'ladi, **Fanlar** va **Baholar** jadvallarida esa bunday maydon **Fan kodi** bo'ladi, **o'qituvchilar** va **Fanlar** jadvallarida esa bunday maydon sifatida **Fan kodini** ishlatish mumkin. Familiyalar va fanlar nomlari o'rniga ularning raqamli kodlari ishlatilishi ularning kulayligi va ma'lumot xajmi kamligi bilan tushuntiriladi. Masalan "informatika" so'zini ishlatgandan ko'ra 3 yoki 2 raqamini ishlatgan ma'kul, chunki oldingi 11 simvol o'rniga bittagina simvol fanni aniklab beradi.

YUkorida aytilganlardan kelib chikkan holda, ma'lumotlar bazasining mantiqiy modelini quyidagicha ifodalash mumkin. Bu erda kora kursiv xarflar bilan kalit maydonlar ko'rsatilgan:

| | | |
|---------------------------|------------------------|-------------------------------|
| <i>Talaba kodi</i> | <i>Fan kodi</i> | Fan kodi |
| Fan kodi | Fan nomi | <i>o'qituvchi kodi</i> |
| Baholar | | Familiyasi |
| | | Ismi |
| | | Otasining ismi |
| | | Tug'ilgan kuni |
| | | Dars beradigan fani |

Talabalar

Baholar

Fanlar

Telefoni

O'qituvchilar

| |
|--------------------|
| <i>Talaba kodi</i> |
| Familiyasi |
| Ismi |
| Otasining ismi |
| Gurux nomeri |
| Tug'ilgan sanasi |
| Stipendiya |

7 - T O P S H I R I Q

Relyasion ma'lumotlar bazasini hosil qilish

1. *Dekanat* deb atalgan ma'lumotlar bazasini hosil qiling;
2. *Talabalar* nomli jadval tuzilishini hosil qiling;
3. *Fanlar* nomli jadval tuzilishini hosil qiling;
4. *O'qituvchilar* nomli jadval tuzilishini hosil qiling;
5. *Baholar* nomli jadval tuzilishini hosil qiling;

6. Ma'lumotlarning tuzilishini hosil qiling, ya'ni jadvallar orasida aloqa tashkil qiling.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Quyidagi ishlarni bajargan holda *Dekanat* deb atalgan ma'lumotlar bazasini hosil qiling:

✓ **Access** ni ishga tushiring va uning hosil bo'lgan muloqot oynasida **Novaya baza данных (YAngi ma'lumotlar bazasi)** deb nomlangan punktni tanlang, so'ngra **OK** tugmachasini bosing;

✓ **Fayl novoy bazy данных (YAngi ma'lumotlar bazasi fayli)** oynasida fayl nomini tering va faylingiz saqlanishi kerak bo'lgan papkani tanlang. **Access** ma'lumotlar bazasiga **db1** nomini beradi, fayl turini esa **Baza данных Access (Assess ma'lumotlar bazasi)** deb tanlaydi. Baza nomini *Dekanat* deb o'zgartiring, fayl turini esa qanday bo'lsa, o'shandayligicha qoldiring;

✓ **Sozdat (Hosil qilinsin)** nomli tugmachani bosing.

2. *Talabalar* nomli jadval tuzilishini hosil qilish uchun quyidagilarni bajarish kerak bo'ladi:

✓ Ma'lumotlar bazasi asosiy oynasida **Tablitsa (Jadval)** imkoniyati tanlanadi va undan so'ng **Sozdat** tugmachasi bosiladi;

✓ **Novaya tablitsa (YAngi jadval)** darchasida **Konstruktor** punktini tanlang va **OK** tugmachasini bosing. Natijada konstruktor rejimidagi jadval oynasi ekranda hosil bo'ladi;

✓ Quyidagi jadvaldan foydalangan holda jadvalning maydonlarini aniklang:

| Maydon nomi | Ma'lumotlar turi | Maydon o'lchami |
|-------------|--------------------|-----------------|
| Talaba kodi | CHislovoy (Sonli) | Seloe (Butun) |
| Familiyasi | Tekstovoy (Matnli) | 15 |

| | | |
|----------------|------------------------|------------------|
| Ismi | Tekstovoy (Matnli) | 12 |
| Otasining ismi | Tekstovoy (Matnli) | 15 |
| Gurux nomeri | CHislovoy (Sonli) | Seloe (Butun) |
| Telefoni | Tekstovoy (Matnli) | 9 |
| Stipendiyasi | Logicheskiy (Mantiqiy) | Da/Net (Ha/Yo‘q) |

✓ Kalit maydon sifatida **Talaba kodi** ni tanlang. Buning uchun **Talaba kodi** maydonida sichqoncha ko‘rsatgigi bilan bosib, uskunalar panelidagi *kalit* belgili tugmachani bosib yoki **Pravka** menyusidagi **Klyuchevoe pole (Kalit maydon)** buyrug‘ini bajarib;

✓ Jadvalga **Talabalar** degan nomni bering va uni yoping.

✓ Hosil bo‘lgan jadvallarni hozircha to‘ldirmang, chunki ularni to‘ldirish forma rejimida amalga oshiriladi.

3. Fanlar nomli jadval tuzilishini hosil qilish uchun oldingi kadamdagi ishlarni quyidagi jadval uchun bajarib:

| Maydon nomi | Ma’lumotlar turi | Maydon o‘lchami |
|-------------|--------------------|-----------------|
| Fan kodi | CHislovoy (Sonli) | Seloe (Butun) |
| Fan nomi | Tekstovoy (Matnli) | 30 |

Kalit maydon sifatida **Fan kodini** bering. Ushbu jadval ham forma rejimida to‘ldiriladi.

4. O‘qituvchilar jadvali 1-topshiriqni bajarish vaktida hosil qilingan edi, lekin uning tuzilishi boshqacharak edi. usha jadvalni ishlatgan holda uning tuzilishini ma’lumotlar bazasining mantiqiy modeliga asosan biroz o‘zgartirish lozim bo‘ladi. YA’ni jadvalga **Fan kodi** nomli yangi maydonni ko‘shish va uni yukoridagi jadvalda berilgan ma’lumotlar bilan to‘ldirish kerak bo‘ladi.

5. Quyidagi jadval ma’lumotlari asosida **Baholar** nomli jadval tuzilishini hosil qiling:

| Maydon nomi | Ma’lumotlar turi | Maydon o‘lchami |
|-------------|-------------------|-----------------|
| Talaba kodi | CHislovoy (Sonli) | Seloe (Butun) |
| Fan kodi | CHislovoy (Sonli) | Seloe (Butun) |
| Baholar | CHislovoy (Sonli) | Bayt |

Bu jadvalda kalit maydonni berish kerak emas, chunki ma’lumotlar barcha maydonlarda qaytarilishlari mumkin. Ushbu jadval ham forma rejimida to‘ldiriladi.

6. Ma’lumotlarning tuzilishini hosil qilish, ya’ni jadvallar orasida aloqa tashkil qilish uchun quyidagi ishlarni bajarishimiz kerak bo‘ladi:

- ✓ Uskunalar panelidagi **Sxema dannyx (Ma'lumotlar chizmasi)** tugmachasini bosib yoki **Servis** menyusidan **Sxema dannyx** buyrug'ini tanlang. Bu ish natijasida ekranda **Sxema dannyx** nomli darcha hosil bo'ladi;
- ✓ Uskunalar panelidagi *jadval ko'shilsin* nomli tugmachani bosib yoki **Svyazi** va **Dobavit tablitsu** buyruqlarini bajaring;
- ✓ Hosil bo'lgan darchada faqat bitta jadvalning nomi ajralib turadi. **Dobavit** tugmachasini bosib. Bu ish natijasida tanlangan jadval ma'lumotlar chizmasiga ko'shiladi;
- ✓ Keyingi jadvalning nomini ajrating va yana **Dobavit** tugmachasini bosib. Natijada u ham chizmaga ko'shiladi;
- ✓ kolgan ikki jadvalni ham xuddi shunday tartibda ma'lumotlar chizmasiga (sxemaga) ko'shing;
- ✓ **Zakryt** tugmachasini bosib, darchani yoping;
- ✓ **Baholar** va **Fanlar** jadvallari orasida aloqa o'rnatish. Buning uchun sichqoncha ko'rsatgichini **Fanlar jadvalidagi Fan kodi** maydoniga olib keling va sichqonchaning chap tugmachasini bosib xamda uni ko'yib yubormasdan, kursorni **Baholar** jadvalidagi **Fan kodi** maydoniga surib olib keling va undan so'ng sichqoncha ko'rsatgichini ko'yib yuboring. Ushbu amallar natijasida ekranda **Svyazy (Aloqalar)** deb nomlangan muloqot darchasi hosil bo'ladi;
- ✓ Ushbu darchada **Obespechenie selostnosti dannyx (Ma'lumotlarning butunligini ta'minlash)** nomli ko'rsatgichni belgilang (unga belgi yoki "galochka" ko'ying);
- ✓ **Kaskadnoe obnovlenie svyazannyx poley (Bir-biriga bog'lik maydonlarning kaskadli yangilanishi)** va **Kaskadnoe udalenie svyazannyx zapisey (Bir-biriga bog'lik < > yozuvlarning kaskadli yo'kotilishi)** nomli ko'rsatgichlarni belgilang (unga belgi yoki "galochka" ko'ying). Ushbu ikki xil ko'rsatgichni ishga tushirish Sizga faqatgina **Fanlar** jadvalidagi yozuvlarni taxrirlash orkali boshqa jadvaldagi yozuvlarni o'zgartirish imkonini beradi. Masalan agar Siz **Fanlar** jadvalidagi yozuvlarni o'zgartirsangiz, **Baholar** jadvalidagi yozuvlarning mos ravishda o'zgarishi ular orasida bog'liklik o'rnatilgani uchun avtomatik ravishda amalga oshadi. Misol uchun, agar **Fanlar** jadvalidan biror-bir fanni yo'kotsangiz, **Baholar** jadvalidagi ushbu fan bilan bog'lik barcha ma'lumotlar ham yo'koladi;
- ✓ Endi **Sozdat (Hosil qilinsin)** tugmachasini bosib, natijada jadvallar orasida kerakli aloqa hosil qilinadi;

SEMINAR VA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINING ISHLANMALARI

**Ma'lumotlar bazasi. Microsoft Access MBBT.
Formalarni yaratish va ularga boshqaruv
elementlarni joylashtirish**

Ma'lumotlar bazalari (MB) yozuvlarini jadval shaklida yoki forma shaklida qarab chiqish va tahrirlash mumkin. MB jadval ko'inishida tasvirlanganda bir vaqtda biryo'la bir nechta yozuvlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi, ammo ko'pincha *Tablitsa* (Jadval) ko'inish ekranda barcha informatsiyani to'liq ko'rsatish imkoniyatiga ega emas.

Forma ko'p maydonli jadvallar bilan ishlashda duch kelinadigan noqulaylikni bartaraf etishga imkon beradi. *Forma* rejimida bitta yozuvning barcha maydonlariga qarab chiqish mumkin.

Forma bilan ishlash qulay bo'lish uchun unga Boshqaruv elementlarini joylashtiriladi (masalan, knopka).

Ushbu amaliy ish "Informatsiyalarni saqlash, izlash va saralash" mavzusini o'rganishga bag'ishlangan. Ishni bajarish *Konstruktor tablits (Jadval Konstruktori)* yordamida MB yaratishni amalga oshira oladiganlarga mo'ljallangan. Ma'lumotlarni kiritishni osonlashtirish va aks ettirish uchun *Mastera form* (Forma yaratish ustasi) yordamida Forma yaratish hamda formaga jadval yozuvlari bilan ishlash va hisobot yaratish imkoniyatni yaratadigan Boshqaruv elementlarini (knopkani) joylashtiramiz.

Sizlarning e'tiboringizga "Talabalar" MB taklif etamiz (1-ilova).

"Talabalar MB uchun forma yaratish" amaliy ish


| | |
|---------------------------|---|
| Fan | Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari |
| Mashg'ulot mavzusi | Microsoft Access MBBT. <i>Talabalar</i> MB uchun forma yaratish |
| Mashg'ulot maqsadi | <p>Ta'limiy: Access da formalar yaratish texnologiyalarini o'zlashtirish. Forma konstruktori (<i>Konstruktor form</i>) yordamida ilovalar uchun interfeysi yaratishni o'rganish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: MB ga ma'lumotlarni kiritish uchun formalarni kerakli rasmilashtirish.</p> <p>Tarbiyaviy: fanga bo'lgan qiziqishini, masalani bajarishdagi batartibliligni, aniqlikni tarbiyalash.</p> |
| Materiallar | "Talabalar MB uchun forma yaratish" amaliy ish. Tayyor ishchi Talabalar MB. |
| Jihozlanishi | Proektorga ulangan o'qituvchi kompyuteri. Har bir ishchi o'rinda Access o'rnatilgan. |

Masala. Mavjud jadval "Talabalar" asosida MB to'ldirish uchun forma yaratish. Formaga *YOzuvni o'chirish (Udalit zapis), YOzuvni saqlash (Soxranit zapis), Guruh ro'yxati, Guruhning Excel dagi ro'yxati, CHiqish* – boshqaruv

elementlarni joylashtiring. MB talabalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kirting (har biri guruxdan 5 tadan kam bo‘lmagan talabalar to‘g‘risida ma’lumot kirting).


| Nimani bajarish | Qanday bajarish |
|-----------------------------------|---|
| Mavjud Talabalar jadvalini ochish |  <p>The screenshot shows the Microsoft Access 2000 interface for a database named 'Talabalar'. The title bar reads 'Талабалар : база данных (формат Access 2000)'. The menu bar includes 'Открыть', 'Конструктор', and 'Создать'. The 'Объекты' (Objects) pane on the left has 'Таблицы' (Tables) selected. The main window displays three options for creating a table: 'Создание таблицы в режиме конструктора', 'Создание таблицы с помощью мастера', and 'Создание таблицы путем ввода данных'. The 'Таблицы' option is highlighted with a blue selection bar.</p> <p>“Talabalar” MB ning Talabalar jadvali quyidagi maydonlardan tashkil topgan: <i>Familiyasi, Ismi, Otasining ismi, Tug‘ilgan sanasi, Guruxi, Telefon, Pasport seriyasi, Pasport raqami</i>. Kalitli maydonlar <i>Familiyasi, Ismi, Otasining ismi</i> bo‘ladi.</p> |

Forma yaratish
(1-qadam)




МВ oynasidan *Formy* ob'ektini o'tish. *Sozдание formy s pomoyuyu mastera bandini tanlash.*

Forma yaratish
(2-qadam)




Hosil bo'lgan *Sozдание form* panelining *Tablitsy i zaprosy* ro'yxat oynasidan *Talabalar* jadvali tanlanadi. *Dostupnye polya* oynasidan *Forma* uchun maydonlar tanlab olinadi. *Dalee* knopkasi bosiladi.

Forma yaratish
(3-qadam)




Hosil bo'lgan navbatdagi panelida ulagichlar (pereklyuchateley) yordami bilan Formaga maydonlarni joylashtirish uslubi tanlanadi (masalan, v odin stolbets- bir ustunga). Dalee knopkasi bosiladi.

Forma yaratish
(4-qadam)



Hosil bo'lgan navbatdagi panelida Formaning shakllantirish stili tanlanadi (masalan, Standartnyy- Standart). Dalee knopkasi bosiladi.


Forma yaratish
(5-qadam)




Hosil bo'lgan navbatdagi panelida Formaning nomi (Talabalar) beriladi. Gotovo knopkasi bosiladi..


Natijada ustun shaklida joylashtirilgan yozuv (MB maydonlarining nomlari) va MB maydonlari qiymatlarini kiritish uchun matn maydonidan tashkil topgan "Talabalar" forma oynasi hosil bo'ladi.

Forma konstruktori rejimida "Talabalar" formasi bilan ishlash. Ro'yxatli maydonni yaratish.




| | |
|--|--|
| | <p>“Talabalar” MB oynasida “Talabalar” formasini tanlab <i>Konstruktor</i> knopkasini bosiladi. Hosil bo‘lgan oynada yozuvlar va matn maydonlarining joylashgan o‘rni, o‘lchamini sichqoncha yordamida o‘zgartirish mumkin.</p> <p><i>YAshash manzili</i> maydonini <i>Ro‘yxatli maydonga</i> almashtirish. Buning uchun <i>YAshash manzili</i> maydonini tanlanadi va sichqonchani o‘ng tugmasi bosiladi.</p> <p><i>Preobrazovat element v > Pole so spiskom</i> buyrug‘ini tanlash.</p> |
| <p><i>YAshash manzili</i> Ro‘yxatli maydoniga qiymatlar berish</p> |  <p><i>YAshash manzili</i> maydonida sichqonchani ikki marta bosib, <i>YAshash manzili</i> ro‘yxatli maydoni muloqot oynasini murojaat qilinadi.</p> <p><i>Dannye bandini</i> tanlanadi va <i>Istochnik strok</i> satriga nuqtali vergul bilan bo‘sh joy tanlamasdan tumanlar nomlari yoziladi(masalan, Samarkand sh.; Samarkand t.; Jomboy; Bulungur; Payarik; Okdaryo; Ishtixon; va h.k.). .</p> |
| <p>Nimani bajarish</p> | <p>Qanday bajarish</p> |

Knopka – boshqarish elementini joylashtirish. *Udalit zapis* knopka misolida.





Konstruktor rejimida ochilgan Talabalar formasining *Primechanie* bo‘limiga knopkani joylashtiriladi (Asboblardan Knopka ob’ektni tanlab).

Udalit zapis knopkani joylashtirish (1-qadam)



Hosil bo‘lgan navbatdagi panelida *Kategorii: Obrabotka zapisey, Deystvie: Udalit zapis* tanlanadi.

| | |
|---|---|
| | <p><i>Dalee knopkani bosish.</i></p> |
| <p><i>Udalit zapis knopkani joylashtirish (2-qadam)</i></p> |  <p>Hosil bo‘lgan navbatdagi panelida knopkaga yozuv yoki rasmlardan biri tanlanadi.</p> <p><i>Dalee knopkani bosish.</i></p> |
| <p><i>Udalit zapis knopkani joylashtirish (3-qadam)</i></p> |  <p>Hosil bo‘lgan navbatdagi panelida knopkaga nom beriladi.</p> <p><i>Dalee knopkani bosish.</i></p> |
| <p><i>Qolgan knopkalarni joylashtirish</i></p> | <p><i>Soxranit zapis (YOZUVNI saqlash) knopkasi ham shunday joylashtiriladi. Kategoriya: Obrabotka zapisey, Deystvie: Soxranit zapis.</i></p> <p><i>Выход (CHIqish) knopkasi - Kategoriya: Rabota s formoy,</i></p> |

Deystvie: *Zakryt formu.*

Gurux ruyxat knopkasi. Dastlab “Gurux ruyxati” so‘rovini yaratish talab etiladi. Knopka Kategoriya: *Raznoe*, Deystvie: *Vypolnit zapros* dan tanlanadi.

“Talabalar”
formasining
yakuniy
ko‘rinishi

Талабалар

Фамилияси Абдуҷаббор

Исми Абдуҳалил

Отасининг Исми Олимов

Тугилган санаси 12.12.1999

Гуруҳи 301

Яшаш манзили Жомбой

Телефон 2222222

Паспорт Серияси се

Паспорт раками 2222222

Гуруҳ руйхати Ўзувни ўчириш Ўзувни сақлаш

Excel гуруҳ руйхати Чиқиш

Запись: 1 из 2

YOzuvlar
bilan
to‘ldiring va
knopkalar
ishlashini
tekshiring.

Ma'lumotlar bazasi ilovalarini yaratish


Ishdan maksad: Dasturlarni jadvalli ma'lumotlar bazasi bilan bog'lik jarayonlarini o'rganish va u xakidagi ko'nikmalarni oshirish.

Topshirik:

- **Data Access, ADO** va **Data Controls** komponentlar panelidagi elementlarni o'rganish;
- Jadvaldagi yozuvlarni o'chirish, taxrirlash va ko'shish texnologiyasini o'rganish.

Tajriba ishini bajarish uchun ko'rsatma.

Delphi dasturlash tili tizimida ma'lumotlar bazasini o'zaro bog'liklikda tashkil qilish va uni boshkarish masalalari bo'yicha yukori imkoniyatlarga egadir. Bu o'zaro bog'liklik 1 - rasmda ko'rsatilgan sxemadagidek amalga oshiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ma'lumotlar bazasi bir nechta ilovalar (prilojeniya) bilan birgalikda ishlash mumkin ekan.



1-rasm. Ma'lumotlar bazasini ilovalar bilan boklikligi.

Ko'pgina ma'lumotlar bazasi **BDE** va **ADO** da **ODBC** boshkaruviziz ishlovchi mahsus drayverlarga egadir. Ushbu tajriba ishida o'zaro bog'lik ma'lumotlar bazasini **ADO (Active Data Objects)** komponenti asosida tuzamiz.

2- tajriba ishidagidek oddiy kundalik dasturini tuzamiz.

Ishni bajarish etaplari:

- **MS-Access** dasturi yordamida ma'lumotlar bazasini tuzish;
- Dasturli ma'lumotlar bazasi bilan bog'likligini tashkil qilish.

Ishni bajarish uchun topshirik.

1. **MS-Access** dasturini ishga tushiring: **Пуск\Программы\Microsoft Access**.
2. Tanlang: **Sozanie bazu dannyx\Novaya baza dannyx**.

3. Ma'lumotlar bazasi faylini **Lab4** papkasiga **db1.mdb** nomi bilan saklang.
4. So'ngra **Sozdanie tablitsy v rejime konstruktora** rejimini tanlang.
5. Kuyidagi ko'rinishda jadval tuzing.

| Maydon (polya) nomi | Ma'lumotlar tipi | Formati |
|---------------------|------------------|------------------------|
| DataS | Data/vremya | Kratkiy format daty |
| FromTime | Data/vremya | Kratkiy format vremeni |
| ToTime | Data/vremya | Kratkiy format vremeni |
| Comment | Pole MEMO | |
| Phone | Tekstovyy | 30 simvolov |


Jadvalni **MainData** nomi bilan saklang. Kalit maydonlarini (klyuchevoy polya) ko'ymang va 2-rasmda ko'rsatilganidek uchta yozuvni kiriting.



| | Date S | From Time | To Time | Comment | Phone |
|---|------------|-----------|---------|-----------------|---------|
| | 25.06.2002 | 11:35 | 12:40 | Nanov | 777-777 |
| ▶ | 25.06.2002 | 15:30 | 18:00 | Happy Birth Day | 333-333 |
| | 25.06.2002 | 19:00 | 19:50 | Petrov | 555-555 |
| * | | | | | |

2-rasm. **MainData** jadvali ko'rinishi.

6. **MS-Access** dasturini yoping.
7. **Delphi** dasturini ishga tushiring: Pusk**Программы\Borland Delphi7\Delphi7**. Yangi proekt tuzing va uni **Lab4** papkasiga **Lab4** nomi bilan saklang.
8. Ma'lumotlar ustida effektiv ravishda ishlash uchun maxsus ma'lumotlar moduli (**Data Module**) tuziladi: **File\New\Data Module**. Bu modul oynasining **Components** kismiga **ADO** komponentlar panelidagi **ADOTable** komponentini joylashtiring (3-rasmga karang).
9. **ADOTable** komponentining **Connection String** xususiyatiga bog'lash katori (**Connection String**) dialogini chakiring va **Built..** tugmachasini bosing. So'ngra **Microsoft Jet 4.0 OLE DBProvider** (**MS-Access** ma'lumotlar bazasiga kirishga ruxsat beruvchi drayver) ma'lumotlar tipini tanlang (4-rasmga karang.) **Connection** kismining birinchi katoriga **db1.mdb** (ciz tuzgan ma'lumotlar bazasi fayli nomi) fayli nomini yozing. **Blank password** (Pustoy parol) kismiga ✓ belgisini ko'ying va bog'lanishni tekshirib ko'ring. Dialogli oynani yoping.




3-rasm. Ma'lumotlar modulini tuzish.

10. ADOTable1 komponenti uchun quyidagi xususiyatlarni o'rnating: **Active-True, TableName-MainData.**

11. Ma'lumotlarni aks ettirish uchun ma'lumotlar moduli oynasiga (**DataModule2**) **Data Access** komponentlar panelidagi **Data Source** (ma'lumotlar manbai) komponentlarini joylashtiring. Bu komponent uchun **DataSet** xususiyatiga **ADOTable1** qiymatini ko'ying. **Data Source** komponenti, ma'lumotlar bazasi bilan undagi elementlarni aks ettirish orasida uzatuvchilik funksiyasini bajaradi.

12. Unit1 modulini taxrirlash oynasiga o'ting va uning **Uses** kismiga **Unit2** so'zini yozing. Bu ma'lumotlar modulidan **Form1** formasida foydalanish imkoniyatini beradi.




4-rasm. Ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanishni sozlash.

13. Form1 formasiga **Data Controls** komponentlar panelidan **DBGrid** komponentini joylashtiring va **Data Source** xususiyatiga **DataModule2.DataSource1** qiymatini ko'ying. Natijada forma quyidagi ko'rinishga keladi (5-rasmga karang):

| DateS | FromTime | ToTime | Comment | Phone |
|------------|---------------------|---------------------|---------|---------|
| 25.06.2002 | 30.12.1899 11:35:00 | 30.12.1899 12:40:00 | (MEMO) | 777-777 |
| 25.06.2002 | 30.12.1899 15:30:00 | 30.12.1899 18:00:00 | (MEMO) | 333-333 |
| 25.06.2002 | 30.12.1899 19:00:00 | 30.12.1899 19:50:00 | (MEMO) | 555-555 |

5-rasm. Form1 formasiga DBGrid komponentini joylashtrilgan ko‘rinishi.


14. DBGrid1 komponentining Columns xususiyatini taxrirlash oynasiga o‘ting va jadvalga beshta ustun ko‘shing. So‘ngra ustunlarning sarlavhalari nomini Title/Caption xususiyati yordamida o‘zgartiring. Comment maydonidagi mos keluvchi ustunlarni o‘chiring (5-rasmga karang).



5 - rasm. Ustunlarning sarlavhalarini o‘rnatish.

15. Form1 formasiga TDBMemo komponentini joylashtiring. Uning Data Source xususiyatiga Data Module2.Data Source1 va Data Fields xususiyatiga Comment qiymatlarini o‘rnating.

16. Data Source1 ma‘lumotlar modulining tarkibiga kiruvchi Fields elementida sichkonchanning o‘ng tugmachasini bosib va xosil bo‘lgan kontekstli menyudan Add all Fields punktini tanlang (6-rasm karang).




6 - rasm. Fields elementini sozlash.

17. **FromTime** va **ToTime** maydonlari (ustunlari) uchun **DisplayFormat** xususiyatiga **hh.pp** (soat:dakika) qiymatini ko'ying.


18. **Form1** formasiga bosh menyu va uning kuyidagi punktlarini tuzing: **Fayl** (**CHikish**), **Kidirish** (**Sana bo'yicha**, **Telefon bo'yicha**, **Filtrdan ozod kilish**), **Xodisalar** (**Ko'shish**, **O'chirish**, **Taxrirlash**).

19. **Form1** formasi uchun dasturdan chikishni tasdiklash protsedurasini va formaning o'lchamini o'zgartira olmaydigan xususiyatlarini o'rning.

20. Proektni saklang va uni ishga tushiring. Natijani o'kituvchiga ko'rsating. Natija 7-rasmdagidek ko'rinishga ega bo'ladi.



7-рasm. Form1 formasi ko'rinishi.




8-рasm. Xodisalarni (ma'lumotlarni) kiritish va taxrirlash formasi.

21. 8-rasmda ko'rsatilgan namunadagidek yozuvlarni kiritish va taxrirlash uchun foydalaniladigan formani tuzing. Taxrirlash oynasining **Uses** kismiga **Unit2** (ma'lumotlar moduli) modulini yozing. Ma'lumotlarni kiritish katorlari sifatida to'rtta **TDBEdit** (**Data Controls** komponentlar panelidagi) komponentlarini

formaga joylashtiring. Uning **DataFiled** xususiyatiga ma'lumotlar bazasidagi kerakli maydonlarni (ustunlarni) ko'ying.

22. YOzuvlarni taxrirlash va ko'shish amallarining umumiy blok sxemasi va algoritmi 8-rasmda ko'rsatilgan. **Xodisalar** menyusining **Ko'shish** punkti protsedurasi quyidagicha:

```
procedure TForm1.N7Click(Sender: TObject);  
begin  
    {jadvalga yozuvni (zapis) ko'shish}  
    DataModule2.Adotable1.Insert;  
    {YAngi yozuvga sana va vaktning kiymatlarini o'rnatish}  
    DataModule2.Adotable1.FieldName('DateS').Value:= Date();  
    DataModule2.Adotable1.FieldName('FromTime').Value:= Date();  
    DataModule2.Adotable1.FieldName('ToTime').Value:= Date();  
    if Form3.ShowModal=mrOK then  
        {o'zgarishni belgilash (fiksiruem izmeneniya)}  
        DataModule2.ADOTable1.Post  
    Else    {yozuvni o'chirish}  
        DataModule2.ADOTable1.Delete;  
end;
```



9-rasm. YOzuvlarni taxrirlash va ko‘shish amallarining umumiy blok sxemasi

23. Xodisalar menyusidagi O‘chirish va Taxrirlash punkti protsedurasini quyidagicha o‘zgartiring:

```

procedure TForm1.N8Click(Sender: TObject);
  {Xodisalar / O‘chirish}
begin
  {YOzuvni o‘chirish}
  DataModule2.ADOTable1.Delete;
end;

```

```


procedure TForm1.N9Click(Sender: TObject);
  {Xodisalar / Taxrirlash}
begin
  if Form3.ShowModal=mrOK then
    {O‘zgartirishlarni bulgilab kuyish (zafiksirovat)}
    DataModule2.ADOTable1.Post
  else
    DataModule2.ADOTable1.Cancel;
end;

```

end;

24. Proektni sakang va uni ishga tushiring. **MainData** jadvaligi bir nechta yozuvlarni ko'shing. **MS-Access** dasturini ishga tushiring va **db1.mdb** faylini oching. Kiritilgan o'zgartirishlarni kuzating.

25. **Form1** formasidagi **Kidirish** menyusi punktlarini ishga tushirish uchun 10-rasmda ko'rsatilganidek yana ikkita forma tuzing.



32-rasmda. Filtrlarni o'rnatish (kidirish) uchun formalar (Form4 va Form5).

26. **Unit1** modulining **Uses** kismiga **Unit4** va **Unit5** so'zlarini yozing. **Kidirish** menyusi punktlari protseduralariga quyidagi o'zgartirishlarni kiriting:

```
procedure TForm1.N5Click(Sender: TObject);
```

```
begin
```

```
  {Sanasi bo'yicha filtrlash}
```

```
  if Form4.ShowModal=mrOK then
```

```
    begin
```

```
      with DataModule2.ADOTable1 do
```

```
        begin
```

```
          Filter := 'DateS='+
```

```
            DateToStr(Form4.MonthCalendar1.Date);
```

```
          Filtered := True;
```

```
        end
```

```
      end;
```

```
end;
```

```
procedure TForm1.N6Click(Sender: TObject);
```

```
  {Telefoni bo'yicha filtrlash}
```

```
begin
```

```
  if Form5.ShowModal=mrOK then
```

```
    begin
```

```
      with DataModule2.ADOTable1 do
```

```

begin
    Filter := 'Phone = '+Form5.Edit1.Text;
    Filtered := True;
end
end;
end;
procedure TForm1.N10Click(Sender: TObject);
{Filtrni olib tashlash}
begin
    DataModule2.ADOTable1.Filter := "";
    DataModule2.ADOTable1.Filtered := False;
end;

```

27. Proektni saklang va uni ishga tushiring. Natijani o‘kituvchiga ko‘rsating.

Nazorat savollari.

1. Ma’lumotlar bazasi bilan ishlash usullarini ayting.
2. Ma’lumotlarni kidirish va taxrirlash algoritmini gapirib boring.
3. Ma’lumotlar bazasining kayta ishlash komponentlarini ayting va ularning funksiyalarini gapirib bering.

Microsoft Access da tayyorlangan ma’lumotlar bazasi uchun ADO texnologiyasi yordamida Delphi da tashqi ilova ishlab chiqish uslubiyati

Microsoft ActiveX Data Objects (ADO) texnologiyasi o‘zida ma’lumotlar bazasi ilovalaridan malumotlarning turli xil manbalariga murojaat qilishning universal mexanizmini ifodalaydi [13,18]. Ilovalardan malumotlarga murojaatni taminlash uchun faqat ADO biriktirish provayderini to‘g‘ri ko‘rsatish etarli bo‘ladi va keyin dasturni talab qilingan malumotlar bazasiga ega va albatta, ADO o‘rnatilgan ixtiyoriy kompyuterga ko‘chirish mumkin.

ADO terminologiyasida har qanday malumotlar manbasi malumotlar saqlanish joyi deyiladi. Ilovalar provayder yordamida malumotlarning saqlanish joyi bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Malumotlar saqlanish joyi har bir tipi uchun o‘z ADO provayderi ishlatiladi. Provayder malumotlarning saqlanish joyiga so‘rovlar va qaytariladigan xizmatchi informatsiya interpretatsiya qilish va so‘rovlarni bajarilish natijalari bilan ularni ilovalarga uzatish uchun murojaat taminlanadi.

Delphi dasturlash tizimida ADO texnologiyalar bo‘yicha ilovalar yaratish uchun foydalaniladigan komponentlar Komponent palitrasi ADO sahifasida joylashgan. (1–rasm).



1–rasm. Komponent palitrasi ADO sahifasi


Microsoft Access da tayyorlangan ma’lumotlar bazasiga ulanishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ushbu sahifa komponentlari vazifalarini qisqacha tavsifini keltiramiz:

ADOConnection – ADO bog‘lanish, ADO-ma’lumotlar manbai bilan bog‘lanishni o‘rnatish uchun foydaniladi va tranzaksiyalarni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi;

ADOTable – ADO jadval, ADO-ma’lumotlar manbaining bir jadvaliga kirishni ta’minlaydi va DataSource komponent orqali ADOTable komponent bilan bog‘langan boshqa komponentlarga bu ma’lumotlarni boshqarish imkonini beradi.


ADO texnologiyasi bo‘yicha ma’lumotlarga kirish ADOTable komponentdan foydalanishda saqlanuvchi ma’lumotlar bilan bog‘lanishni o‘rnatish ADOConnection komponent yordamida bajarish mumkin, buning uchun uningConnectionString xossasi yordamida saqlanuvchi ma’lumotlar bilan bog‘lanish o‘rnatilishi zarur.

ConnectionString xossa yordamida saqlanuvchi ma’lumotlar bilan bog‘lanish o‘rnatish texnologiyasini qarab chiqamiz. Bu xossa o‘zida bir biridan nuqtali vergul bilan ajratilgan bog‘lanish parametrlaridan iborat satrni ifodalaydi. Avvalo, ilova formasida ADOConnection bog‘lanish komponent joylashgan bo‘lishi kerak. Bog‘lanish parametrlarini sozlash Ob’ektlar inspektori oynasidan ma’lumotlarga kirishning tegishli komponent xossalarida ConnectionString satrida sichqonchani ikki marta bosish bilan ochiladigan muloqot oynasida amalga oshiriladi (2–rasm).




2–rasm. Bog‘lanish satrini sozlashning birinchi oynasi

Use Connection String ulagich o‘rnatilagandan bog‘lanish satrini yaratish bo‘yicha harakatlar bajariladi. Muloqot tanlangan variantini davom ettirish uchun Build knopkani bozish kerak. Natijada to‘rtta sahifaga ega bo‘lgan Data Link Properties oyna ochiladi. Provider sahifasi yordamida echilayotgan masala xususiyatidani hisobga olib provayder tanlash amalga oshiriladi (3–rasm). Microsoft Access MBBT ma’lumotlar bilan bog‘lanish uchun Microsoft Jet OLE DB Provider tanlanishi zarur.



3–rasm. Bog‘lanishlarni sozlash oynasining Provider sahifasi
Next knopka bosilgandan so‘ng Connection sahifasiga o‘tiladi (4–rasm).



4–rasm. Bog‘lanishlarni sozlash oynasining Connection sahifasi

Connection sahifasida ma’lumotlar bazasi nomini, foydalanuvchi nomini va parol (ma’lumotlar bazasini himoyalash uchun) ko‘rsatiladi. Test Connection knopkani bosib bog‘lanish ishlashishi to‘g‘riligi tekshirilishi mumkin.

OK knopkani bosish bilan bog‘lanishlar satrini o‘rnatish yoki qolgan ikki sahifaga o‘tish mumkin.

Advanced sahifasi Network Settings maydonida ma’lumotlar bazasi tarmaqli murojaatda himoyaning darajasi beriladi. Connect timeout maydonida bog‘lanish kutish vaqtining sekunlarda chegarasi beriladi. Access permissions ro‘yxatida murojaat huquqini aniqlash uchun ruxsat etilgan amallar ro‘yxati beriladi: Read–faqat o‘qish; ReadWrite –o‘qish va yozish; Share Deny None – o‘qish va yozish taqiqlanmagan; Share Deny Read – o‘qish uchun ochish taqiqlangan; Share Deny Write – yozish uchun ochish taqiqlangan; Share Exclusive – yakka foydalanish; Write – faqat yozish.

Sozlashlar muloqot oynasi All sahifasida boshqa sahifalar yordamida berilgan bog‘lanish parametrlarini ko‘rish va tahrirlash mumkin.

ADOConnection komponentdan foydalanilganda sozlashlardan so‘ng bog‘lanishni faollashtirish uchun bu komponent Connected xossasiga True qiymatni ta’minlash yoki ilova bajarilish jarayonida Open usulini tanlash etarli.

Ma’lumotlarga murojaatda ADOTable komponentdan foydalanilganda sozlashlardan so‘ng bog‘lanishni faollashtirish uchun Active xossasi ishlatiladi.

ADO texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlar saqlanish joyi jadvalga kirishni ta'minlash uchun ADOTable komponent xizmat qiladi. Bu komponent ADO provayderi orqali ma'lumotlar saqlanish joyi bilan bog'lanishni o'rnatish uchun ConnectionString yoki Connection xossalari xizmat etadi. Jadvalning ma'lumotlar to'plamini boshqarish uchun ilovada DataSource ma'lumotlar manbai komponent kiritiladi. Bunda ushbu komponentning DataSet xossasiga qiymat sifatida ADOTable komponent nomi beriladi. Jadval ma'lumotlar aks ettirish uchun ma'lumotlar manbaiga aks ettirishning turli komponent ulanadi., masalan, DBGrid.

Ma'lumotlar saqlanish joyi bilan ADOTable komponent aloqa o'rnatilgach, uning TableName xossasiga jadval yoki so'rov nomi beriladi.

Ma'lumotlar ustida tranzaksiyalarni (qo'shish, o'chirish, o'zgartirish va b.) amalga oshirish uchun DBNavigator komponent ishlatiladi, uning DataSource xossasiga DataSource1 ni tanlaymiz.

Qaysidir maydon bo'yicha izlash amalga oshirilish uchun formaga Komponent palitrasi Standard sahifasidan bitta knopka ((Button), ikkita kiritish maydoni (Edit) va ikkita metkani (Label) joylashtiriladi. Birinchi kiritish maydoni qarshisidagi metkani tanlaymiz, Caption xossasiga "Maydon" , ikkinchi metkaga "Qiymat" ni beramiz. Knopkaning Caption xossasiga "Izlash" ni ta'minlaymiz va kiritish maydonning Text xossasini bo'sh qilamiz. "Izlash" knopkada sichqonchani ikki marta bosib Unit ni ochamiz va begin so'zidan so'ng quyidagini yozamiz:

```
if Form1.ADOTable1.Locate (Form1.Edit1.Text, Form1.Edit2.Text,
[loCaseInsensitive]) =true
then ShowMessage('Finding!');
```

ADOTable komponentning Locate xossasi izlashni amalga oshirish uchun ishlatiladi. Ushbu holda uning parametrlari Edit1 (Maydon) i Edit2 (Qiymat), shuningdek to'liq mos kelishi loCaseInsensitive bo'ladi.

Saralashni amalga oshirish uchun forma metkani joylashtiramiz, Caption xossasi "Saralash" qiymatini beramiz. Metkani qarshisiga ikkita knopka joylashtiramiz: birinchisining Caption xossasi "O'sish bo'yicha", ikkinchisining Caption xossasiga "Kamayish bo'yicha" qiymatlarni beramiz. "O'sish bo'yicha" knopkada sichqonchani ikki marta bosib Unit ni ochamiz va begin so'zidan so'ng quyidagini yozamiz:

```
Form1.ADOTable1. Sort:=Form1.Edit1.Text+' ASC';
```

ADOTable komponentning Sort parametri saralashga javob beradi. Unga Edit1 kiritish maydoni qiymati ta'minlanishi, saralash qaysi maydon bo'yicha amalga oshirilishini bildiradi, ASC parametri esa aynan saralash o'sish bo'yicha bo'lishiga javob beradi.

SHunga o'xshash kamayish bo'yicha saralashni bajaramiz, "Kamayish bo'yicha" knopkada sichqonchani ikki marta bosib ASC parametri o'rniga kamayish bo'yicha saralashga javob beradigan DESC yozamiz:

```
Form1.ADOTable1. Sort:=Form1.Edit1.Text+' DESC ';
```

Filtrlashni amalga oshirish uchun formaga ikkita knopkani joylashtiramiz, birinchisining Caption xossasiga “Filtrlash”, ikkinchisiga “Filtrlashni bekor qilish” ni yozamiz. “Filtrlash” knopkada sichqonchani ikki marta bosgandan so‘ng, unit dagi begin so‘zidan keyin quyidagilarni yozamiz:

```
Form1.ADOTable1.Filter:=Form1.Edit1.Text+'='+QuotedStr (Form1. Edit2.Text);  
Form1.ADOTable1. Filtered:=true;
```

ADOTable komponentning Filter xossasi filtrlashni amalga oshirish uchun javob beradi. Unga Edit1 kiritish maydonidan qiymat ta’minlanishi, filtrlash aynan shu maydon bo‘yicha amalga oshirilishini bildiradi. QuotedStr funksiya kiritilgan satrni mashina satri uchun o‘qiladigan holatga o‘tkazadi. Form1.ADOTable1.Filtered:=true; satri filtrning o‘zini ishga solishga javob beradi.

Filtrlashni bekor qilishni amalga oshirish uchun “Filtrlashni bekor qilish” knopkada sichqonchani ikki marta bosgandan so‘ng, unit dagi begin so‘zidan keyin quyidagilarni yozamiz:

```
Form1.ADOTable1. Filtered:= false;
```

Bu satr filtrlashni bekor qilish uchun xizmat qiladi.

SHu tarzda Delphi vosita ADO texnologiya yordamida Microsoft Access tayyorlangan ma’lumotlar bazasi uchun ma’lumotlarni qo‘shish, o‘chirish, izlash, filtrlash va saralash e’tiborga olingan tashqi ilova yaratiladi.

NAZORAT MATREALLARI

«MB va BBBT» fanidan testlar

1. Quyidagi javoblarning qaysi birida MS Access hisobot tuzilmasining bo‘limlari to‘liq keltirilgan?

sarlavha, yuqori kolontitul, ma’lumotlar joylashgan joy, quyi kolontitul, eslatma.

sarlavha, ma’lumotlar joylashgan joy, eslatma.

sarlavha, yuqori kolontitul, quyi kolontitul, eslatma.

sarlavha, yuqori kolontitul, ma’lumotlar joylashgan joy, quyi kolontitul.

2. MS ACCESS ob’ektlariga berilgan tavsiflarning qaysi biri noto‘g‘ri?

Hisobot bu boshqaruv ob’ektlar majmuasi oynasidir.

Jadval - MBning ma’lumotlar saqlaydigan asosiy ob’ekt.

So‘rov - MB dagi ma’lumotlarni tartiblash, biror kerakli ma’lumotni qidirib topish kabi vazifalarni bajaradi.

Forma – MBga yangi ma’lumotlar kiritadi, yoki joriy MBdagi ma’lumotlar ustida foydalanuvchi uchun qulay bo‘lgan turli-tuman shakldagi formalar yaratadi.

3. MS Access dasturining ma’lumotlar bazasi oynasidagi Konstruktor knopkasi yordamida

jadval tuzilishini ekranda ko‘rish mumkin.

jadvalni ochib unga ma’lumotlar kiritish va o‘zgartirish mumkin.

jadval yozuvlarini o‘chirish mumkin.

jadvalga yozuvlar qo‘shish mumkin.

4. MS Access dasturining ma’lumotlar bazasi oynasidagi Открыт knopkasi yordamida

mavjud jadvalni ochib, undagi ma’lumotlar tahrirlash mumkin.

mavjud jadval tuzilishini ko‘rish mumkin.

mavjud jadvaldagi maydon(lar)ni o‘chirish mumkin.

mavjud jadvalga yangi maydonlar qo‘shish mumkin.

5. MS Access dasturining ma’lumotlar bazasi oynasidagi knopkalariga berilgan quyidagi tasdiqlardan qaysi biri to‘g‘ri?

Открыт- tanlagan ob’ektni ochadi, Konstruktor-tanlagan ob’ekt tuzilmasini ochadi, Sozdat- yangi ob’ektlarni tashkil qiladi.

Открыт- tanlagan ob’ekt tuzilmasini ochadi, Konstruktor- tanlagan ob’ektni ochadi, Sozdat- yangi ob’ektlarni tashkil qiladi.

Открыт- yangi ob’ektlarni tashkil qiladi, Konstruktor-tanlagan ob’ekt tuzilmasini ochadi, Sozdat- tanlagan ob’ektni ochadi.

Открыт- tanlagan ob’ektni ochadi, Konstruktor- yangi ob’ektlarni tashkil qiladi, Sozdat- tanlagan ob’ekt tuzilmasini ochadi.

6. MS Accessda so‘rov tuzish usullar haqidagi quyidagi tasdiqlardan qaysi biri noto‘g‘ri?

Povtoryayushiesya zapisi (takrorlanuvchi yozuvlar) jadvalda yoki so‘rovlarda takrorlanuvchi yozuvlarni yo‘qotish uchun so‘rovlar tuzish.

Konstruktor - mustaqil ravishda yangi so‘rovlar tuzish.

Prostoy zapros (oddiy so‘rov) - mavjud aniq maydonlarni tanlab olish yo‘li bilan so‘rovlar tuzish.

Perekrestnyy zapros (qiyosiy so‘rov) - MB da mavjud bo‘lgan bir nechta jadval va so‘rovlarni chatishmasidan yangi so‘rovlar yaratish.

7. MS Accessda so‘rovlar yordamida quyidagi amallardan qaysi birini bajarib bo‘lmaydi?

parallel.

ma‘lumotlarni saralash (filtrdan o‘tkazish).

ma‘lumotlarni jamlash.

ma‘lumotlarni ajratish, o‘zgartirish.

8. MS Access dasturida ishlatiladigan ma‘lumotlar qaysi ob‘ektda saqlanadi?

jadvallarda.

modullarda.

yozuv boshqaruv elementida.

knopka boshqaruv elementida.

9. Access dasturining qaysi ob‘ekti yordamida ma‘lumotlar kiritiladi?

Jadval.

Saxifalar.

Xisobot.

Modul.

10. MS Access dasturida ma‘lumotlar bazasini yaratish ustasi ishini qaysi knopka bekor qiladi?

Otmena.

Gotovo.

Nazad.

Dalee.

11. Ma‘lumotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda, uni maydonlarda ifodalash bu

jadvaldir.

makrobuyruqdir.

avtomotlashtirilgan xolatdir.

hisobotdir.

12. MS Access dasturida so‘rov blankasining yacheykasiga ma’lumot kiritish jarayonida kiritish sohasi oynasiga murojaat qilish uchun bosilishi zarur bo‘lgan klavishlar kombinatsiyasi quyidagi javoblardan qaysi birida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

SHIFT+F2.

CTRL+F1.

ALT+F2.

ENTER+F2.

13. MS Accessning so‘rov blankasi bilan ish ko‘rganda asboblar panelidagi qaysi knopka so‘rov natijasini ekranga chiqaradi?

Zapusk.

Otmenit.

Vernut.

Postroit.

14. MS Accessda bir yoki bir nechta yozuvlar guruhini bir-biriga ko‘shish uchun kaysi so‘rov usulidan foydalaniladi?

YOzuvlar qo‘shish.

YOzuvni yangilash.

Jadval yaratish.

Yo‘qotish.

15. MS Accessda qaysi boshqaruv elementi ozod boshqarish elementi hisoblanadi?

YOzuv.

Maydon.

O‘tkazgichlar.

Rasm.

16. MS Accessning hisobot tuzilmasida mavjud, lekin forma tuzilmasida bo‘lmagan bo‘limni toping?

Bunday bo‘lim yo‘q.

Kolontitul.

Sarlavha.

Ma’lumotlar soxasi.

17. Quyidagi dasturlardan qaysi biri ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi hisoblanadi?

MS Access.

MS Word.

Paint.

MS PowerPoint.

18. Quyidagi javoblardan qaysi birida ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari to'g'ri ko'rsatilgan?

Paradox, Access, dBase, FoxPro, Clipper.

Word, Access, Excel, PowerPoint.

Access, Paint, Corel Draw, Word, Excel.

Adobe Photoshop, Paint, Macromedia Flash.

19. Quyidagi javoblardan qaysi birida MS Access dasturi ob'ektlaridagi ma'lumotlardan nusxa olish uchun ishlatiladigan klavishlar kombinatsiyasi to'g'ri ko'rsatilgan?

Ctrl+C yoki Ctrl+Insert.

Ctrl+X yoki Ctrl+V.

Shift+S.

Ctrl+C yoki Shift+Insert.

20. Ma'lumotlar bazasi qaysi dasturda yaratiladi?

Microsoft Access.

Paint.

Microsoft Word.

Microsoft PowerPoint.

22. Eng sodda holda ikki o'lchovli massiv yoki jadvaldan iborat va ma'lumotlarni tashkil etishda uning qismlari orasidagi munosabatlarga asoslangan ma'lumotlar bazasi modeli qanday bazadir?

Relyasion.

Ierarxik.

Semantik tarmok.

Matn.

22. Ma'lumotlar bazasining qaysi modeli quyi pog'onasidagi elementlari uning yuqori pog'onasidagiga elementlariga bo'ysunish g'oyasiga asoslangan?

Ierarxik.

Relyasion.

Semantik tarmok.

Jadval.

23. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri noto'g'ri?

OLE-nomi bilan yurituvchi maydon faqat «rost» (true) yoki «yolgon» (false) qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Barcha ma'lumotlar bazalari jadval tuzilmasiga ega.

Ma'lumotlar bazalarida har qanday maydonga xos xususiyat uning uzunligidir.

Maydon uzunligi undagi belgilar soni bilan ifodalanadi.

24. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri noto'g'ri?

Tipi «Pul birligi» boʻlgan maydonda joylashgan qiymatlar ustida arifmetik amallarni bajarib boʻlmaydi.

Oddiy matn maydonida xisob ishlarini bajarib bulmaydi.

Sonli maydon sonli maʼlumotlarni kiritishga xizmat kiladi va undan xisob ishlarini bajarishda foydalaniladi.

Sana va vaqt maydoni sana va vaqtni formatlangan holda saklash imkonini beradi.

25. Maʼlumotlar bazasini loyihalashning qaysi bosqichida maʼlumotlar bazasini yaratish uchun uning tarkibi, nima uchun ishlatilishi, yaratilish maksadi bayon etiladi va ushbu maʼlumotlar bazasida qanday turdagi ishlarni bajarish moʻljallanayotganligi sanab oʻtiladi?

Muammoning kuyilishi.

Obʻektning taxlili.

Model sintezi.

Dasturiy uskuna yaratish.

26. Maʼlumotlar bazasini loyihalashning qaysi bosqichida maʼlumotlar bazasining qanday obʻektlardan tuzilishi mumkinligi va bu obʻektlar qanday parametrlar bilan aniqlanishi kurib chiqiladi?

Obʻektning taxlili.

Muammoning quyilishi.

Model sintezi.

Dasturiy uskuna yaratish.

27. Maʼlumotlar bazasini loyihalashning qaysi bosqichida maʼlumotlar bazasidagi kerakli axborotlarni izlash, maʼlumotlarni saqlash, tanlab olish, chop etish, oʻzgartirish va toʻldirish kabi ishlar bajariladi?

Yaratilgan maʼlumotlar bazasi bilan ishlash.

Muammoning quyilishi.

Dasturiy uskuna yaratish.

Model sintezi.

28. Maʼlumotlar bazasini boshqarish tizimlarida jadval

maʼlumotlarini saqlaydigan asosiy obʻektdir.

faqat diagrammalar hosil qilish uchun tashkil etiladi.

ishlatilmaydi.

xususiy hollarda ishlatiladi.

29. Maʼlumotlar bazasini boshqarish tizimlarida maʼlumotlar bazasi bu asosiy obʻektdir

MS DOS operatsion tizimida yaratilgan maʼlumotlarni Windows operatsion tizimiga oʻtkazish vositasidir.

fayllarni arxivlashda qoʻllaniladigan yagona vositadir.

rasmlar ishlovchi dasturlar majmuasidir.

30. Quyidagi javoblardan qaysi birida maydonlarga xos xususiyatlar to‘g‘ri keltirilgan?

Uzunlik, nom, tip.

Saralash, izlash, tip

Saqlash, nom, tip.

YAratish, izlash, uzunlik.

31. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini sinflarga ajratishda qo‘llaniladigan alomatlar quyidagi javoblardan qaysi birida to‘laroq ifodalangan?

Foydalaniladigan muloqat tili, ma’lumotlar modellarining darajasi, bajaradigan vazifasi, qo‘llash soxasi, ishlash rejimi, qo‘llaniladigan ma’lumotlar modellari.

Foydalaniladigan muloqat tili, yaratilgan ma’lumotlar bazalari soni, foydalanuvchilarning soni.

MBBT qullaydigan ma’lumotlar modellarining darajasi, bajaradigan vazifasi, qo‘llash soxasi.

Foydalanuvchilarning soni, yaratilgan ma’lumotlar bazalari soni.

32. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini foydalaniladigan muloqat tiliga ko‘ra turkumlanishi qaysi javobda to‘g‘ri ifodalangan?

YOpiq va ochiq.

Ochiq va kengaytirilgan.

YOpiq va kengaytirilgan.

Kengaytirilgan, ya’ni bir foydalanuvchili va ko‘p foydalanuvchili.

33. Makros bu

makrobuyruqlar ketma-ketligidir.

so‘rovlar ketma-ketligidir.

ilovalar ketma-ketligidir.

hisobotdir.

34. Berilgan jadvalning bitta yozuvi boshqa jadvaldagi faqat bitta yozuviga mos kelsa, bu munosabat relyasion ma’lumotlar bazasi jadvallari orasidagi munosabatlarning qaysi turi hisoblanadi?

Birga-bir munosabat.

Birga-ko‘p munosabat.

Ko‘pga-bir munosabat.

Ko‘pga-ko‘p munosabat.

35. Berilgan jadvalning bitta yozuvi boshqa jadvaldagi ikki yoki unlan ortiq yozuviga mos kelsa, bu munosabat relyasion ma’lumotlar bazasi jadvallari orasidagi munosabatlarning qaysi turi hisoblanadi?

Birga-ko‘p munosabat.

Birga-bir munosabat.

Ko'pga-bir munosabat.

